MDIS Tashkent

MANAGEMENT, MARKETING AND FINANCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL



VOLUME 3, SPECIAL ISSUE

Management Development Institute of Singapore in Tashkent

International scientific journal Management, Marketing and Finance

VOLUME 3 SPECIAL ISSUE
JULY 2026

“Menejment, marketing va moliya” xalqaro ilmiy jurnali 2026-yil maxsus soni

ISSN 3030-3745 | WWW.JMMF.UZ

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 27-sentabrdagi 361/5-sonli qaroriga muvofiq dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Texnika, iqtisodiyot, yuridik (huquq) fanlari yo‘nalishlari bo‘yicha yozilgan ilmiy maqolalar nashr etiladi.

Mazkur maxsus sonda e’lon qilingan ilmiy maqolalar “Inklyuziv turizmni tashkil etishning metodik asoslarini ishlab chiqish (Navoiy viloyatining Xatirchi, Nurota va Qiziltepa tumanlari misolida)” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida olingan tadqiqot natijalariga ham asoslanadi. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish sohasidagi davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, innovatsion grant raqami – IL-9124093892.

Tashkent 2026

ISSN 3030-3745
"Management, Marketing and Finance" xalqaro ilmiy jurnali 2026-yil maxsus soni – 2026-yil iyul.

Tahrir hay'ati

Tahrir hay'ati raisi

Mamatkulov Ilhom Abdurashidovich	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti rektori, i.f.d.*

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

Ishanxodjayeva Dildora Aleksandrovna	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti Tadqiqot, innovatsiyalar va xalqaro munosabatlar bo'yicha direktor, i.f.f.d. (PhD)*

Tahrir hay'ati mas'ul kotibi

Hasanov Tohir Abdurashidovich	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti konsultanti, i.f.d., dotsent.*

Tahrir hay'ati a'zolari

Murtazayev Olim	*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori, i.f.d. professor.*
Safarov Bahodirxon Shahriyorovich	*Xalqaro turizm akademiyasi Samarqand kampusi Akademik masalalar bo'yicha direktor o'rinbosari, i.f.d. professor.*
Turdibekov Xasan Ibragimovich	*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha filial direktori o'rinbosari, i.f.n. dotsent*
Abdullayev Zafar Hasanovich	*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha filial direktori o'rinbosari, PhD.*
Amirov Akmal Merojovich	*Sh.Rashidov nomidagi SamDU Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi (PhD) dotsenti.*
Mansurova Nargiza Shamsiddinovna	*"Ipak yo'li" xalqaro tadqiqot instituti direktori, i.f.d. professor*
Buzrukova Maxina Muxammadxonovna	*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali O'zbek tili va xorijiy tillar kafedrasi professori*
Aktamov Olimjon Abdug'ani o'g'li	*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Yashil iqtisodiyot va Barqaror biznes kafedrasi katta o'qituvchisi .*
Abdullayev Baxrom	*Urganch davlat universiteti rektori, fiz-mat.f.d.,dotsent.*
Raximxodjayeva Nodira	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dekani, i.f.f.d.*
Xo'jayev Jamol	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dotsenti, t.f.f.d.*
Kurbonova Dilafruz	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dotsenti, i.f.f.d.*
Bektemirov Abduxamid	*Samarqand davlat universiteti dotsenti, PhD.*
Veluthedan Sreekanth	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Alekha Panda	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Firas Halawani	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Maged al Dubai	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Manjunath Bharmappa Ramesh	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*

"Management, Marketing and Finance" xalqaro ilmiy jurnalida har bir maqolaga DOI raqam olinib, Polshaning Indeks Copernikus (OAK12), Yevropaning Zenodo va Open Aire, Rossiyaning Cyberlinenka, Angliyaning Europub xalqaro ilmiy bazalariga va www.jmmf.uz saytiga joylanadi, Google akademiya xalqaro ilmiy qidiruv tizimida indekslanadi.

© Management Development Institute of Singapore in Tashkent
© International Scientific Journal "Management, Marketing and Finance"
© Authors

KIRISH SO‘ZI

Turizm bugungi kunda nafaqat iqtisodiy o'sish manbai, balki ijtimoiy adolat va inklyuzivlik g'oyalarini amalga oshirishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, amaliyotda hali ko'plab muammolar saqlanib qolmoqda: turizm obyektlari, transport vositalari, mehmonxona va restoranlarning katta qismi maxsus ehtiyojga ega shaxslar — nogironligi bor fuqarolar, keksalar, bolali oilalar va boshqa toifadagi sayohatchilar uchun mo'ljallanmagan. Natijada ushbu toifadagi fuqarolar turizm xizmatlaridan teng foydalanish huquqidan mahrum bo'lib qolmoqda, hududlar esa o'z turistik salohiyatini to'liq ishga solish imkoniyatini yo'qotmoqda.

Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism) tomonidan ilgari surilgan "turizm hamma uchun" g'oyasi, shuningdek BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari ana shu muammoga javob sifatida shakllangan. Ularning mohiyati shundaki, jismoniy yoki boshqa har qanday ehtiyojlardan qat'i nazar, har bir inson turizm xizmatlaridan erkin va to'siqsiz foydalana olishi kerak. Bu o'z navbatida "to'siqsiz muhit" konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi — aravachalar uchun qulay yo'lak va kirishlardan tortib, ko'rish yoki eshitish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun maxsus qo'llanmalargacha, jamoat va xususiy transportni moslashtirishgacha bo'lgan keng qamrovli ishlarni o'z ichiga oladi. Muammoning yana bir jihati — ma'lumot yetishmovchiligi. Ko'pincha maxsus ehtiyojli shaxslar mavjud imkoniyatlar haqida oddiygina xabardor bo'lmagani sababli ulardan foydalana olmaydi, bu esa raqamli platformalar va mobil ilovalar orqali axborot tarqatish tizimini yaxshilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Aynan shu muammolarni ilmiy jihatdan hal etish maqsadida Navoiy viloyatining Qiziltepa, Nurota va Xatirchi tumanlari misolida inklyuziv turizmni tashkil etishning metodik asoslarini ishlab chiqishga bag'ishlangan innovatsion loyiha ishga tushirildi. Loyiha O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish sohasidagi davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida amalga oshirilib, IL-9124093892 raqami bilan ro'yxatga olingan. Uning bosh maqsadi — jismoniy yoki maxsus ehtiyojidan qat'i nazar, har bir fuqaro uchun turizm xizmatlaridan teng foydalanish sharoitini yaratish, bu esa turistik infratuzilmani nogironligi bor shaxslar, keksalar, bolali oilalar va boshqa guruhlarning talablariga moslashtirish orqali amalga oshiriladi. Amaliy jihatdan loyiha doirasida "turizm hamma uchun" nomli elektron platforma va mobil ilova yaratilmoqda, "Gapiruvchi shahar" konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda, turistik obyektlar ovozli yo'l ko'rsatuvchi belgilar va audio-vizual materiallar bilan jihozlanmoqda, transport xizmatlari inklyuziv talablarga moslashtirilmoqda, shuningdek soha xodimlari maxsus ehtiyojli mehmonlar bilan ishlash bo'yicha o'qitilmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqot natijalari mahalliy va xorijiy olimlar, ekspertlar ishtirokidagi "Inklyuziv turizmni rivojlantirishning metodologik asoslari va raqamli yechimlari: mintaqaviy tajriba hamda xalqaro yondashuvlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida keng muhokama qilindi. Konferensiya davomida inklyuziv turizmning nazariy-metodologik jihatlari, raqamli texnologiyalarni joriy etish yo'llari, xorijiy ilg'or tajribalar hamda xizmat sifatini oshirish masalalari bo'yicha fikr almashildi. "Management, Marketing and Finance" xalqaro ilmiy jurnalining ushbu maxsus sonida chop etilgan maqolalar aynan mana shu konferensiyada ilmiy muhokamadan o'tgan bo'lib, bildirilgan fikr-mulohazalar asosida yanada takomillashtirildi — bu esa nashr materiallarining ilmiy yangiligi va amaliy qimmatini oshirishga xizmat qildi.

Jurnalning mazkur sonida e'lon qilingan maqolalar aynan IL-9124093892-sonli loyiha doirasida to'plangan tadqiqot natijalariga tayanadi hamda Navoiy viloyati Qiziltepa, Nurota va Xatirchi tumanlarida inklyuziv turizmni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini shakllantirish, hududlarning turistik salohiyatini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Bu tadqiqotlar yana bir bor shuni ko'rsatadiki, inklyuziv turizm nafaqat ijtimoiy adolat masalasi, balki hududiy iqtisodiy rivojlanish, aholi bandligini oshirish va turizm sohasining raqobatbardoshligini mustahkamlashning ham muhim strategik omilidir.

B.Sh. Safarov,
Xalqaro turizm akademiyasi Samarqand kampusi
Akademik masalalar bo’yicha direktor o’rinbosari, i.f.d. professor.

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

[1]Amirov Akmal Merojovich, [2]Erbo‘tayev Azimjon Qaxromon o‘g‘li
[1]SH.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti, ORCID: 0000-0001-6168-8791,
[2]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.21298680

Annotatsiya. *Maqolada inklyuziv agroturizmni rivojlantirishning xalqaro tajribasi tahlil qilinib, uni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi inklyuziv agroturizmning konseptual modelini va uni joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot tizimli, qiyosiy, SWOT, PESTEL, kontent tahlil hamda ekspert baholash usullariga asoslanadi. Empirik baza sifatida 2010-2026-yillarda e’lon qilingan Scopus, Web of Science manbalari va xalqaro tashkilotlar hisobotlaridan foydalanildi. Natijalar asosida universal dizayn, davlat qo‘llab-quvvatlashi va moliyalashtirish mexanizmlarining muhimligini ko‘rsatadi. Taklif etilgan model va tavsiyalar O‘zbekistonda inklyuziv agroturizmni rivojlantirishga xizmat qiladi.*
Kalit so‘zlar: *inklyuziv agroturizm, qishloq turizmi, universal dizayn, nogironligi bo‘lgan turistlar, barqaror rivojlanish, turizm klasteri, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, ekspert baholash, gastronomik turizm.*
Abstract. *This article analyzes international experience in the development of inclusive agritourism and substantiates the possibilities for its application in the context of Uzbekistan. The aim of the study is to develop a conceptual model of inclusive agritourism and propose organizational and economic mechanisms for its implementation. The research is based on a combination of systematic analysis, comparative analysis, SWOT analysis, PESTEL analysis, content analysis, and expert evaluation methods. The empirical basis of the study includes scientific publications indexed in* ***Scopus*** *and* ***Web of Science*** *published between 2010 and 2026, as well as reports issued by international organizations. The research findings highlight the critical role of universal design, government support, and sustainable financing mechanisms in the successful development of inclusive agritourism. The proposed conceptual model and practical recommendations provide a scientific and methodological framework for promoting inclusive agritourism in Uzbekistan while improving the accessibility, sustainability, and competitiveness of rural tourism destinations.*
Keywords: *inclusive agritourism, rural tourism, universal design, tourists with disabilities, sustainable development, tourism cluster, organizational and economic mechanism, expert evaluation, gastronomic tourism.*

1. Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda jahon turizmi rivojlanishida ikki muhim tendensiya shakllandi. Birinchisi, turizm xizmatlaridan barcha insonlarning teng foydalanish imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan inklyuziv (accessible) turizm konsepsiyasining keng joriy etilishidir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 1,3 milliardga yaqin kishi, ya’ni aholining qariyb 16 foizi nogironlikning turli shakllari bilan yashaydi [**Error! Reference source not found.**]. Aholining qarishi ushbu segment ulushining ortishiga olib kelayotganligi sababli inklyuziv turizm global turizm siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda [28]. Ikkinchi tendensiya esa

qishloq hududlarini iqtisodiy diversifikatsiya qilish, mahalliy bandlikni oshirish va madaniy-ekologik merosni saqlash vositasi sifatida agroturizmning jadal rivojlanishidir [13].

Agroturizm ishlayotgan fermer xo‘jaligi yoki qishloq xo‘jaligi muhitida tashkil etilib, tashrif buyuruvchilarga agrar faoliyat bilan tanishish, mahalliy turmush tarzi va madaniyatini bevosita his etish imkonini beradi [21, 25]. U fermer xo‘jaliklari daromadlarini diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va qishloq hududlarining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi [2]. Biroq mavjud amaliyot shuni ko‘rsatadiki, aksariyat agroturizm obyektlari nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar va harakatlanishi cheklangan tashrif buyuruvchilar ehtiyojlariga to‘liq moslashtirilmagan [16].

Mazkur tadqiqot aynan inklyuziv turizm va agroturizmning kesishgan nuqtasida shakllanuvchi **inklyuziv agroturizm** konsepsiyasini asoslaydi. Muallif talqiniga ko‘ra, inklyuziv agroturizm - bu universal dizayn tamoyillari asosida barcha tashrif buyuruvchilar uchun teng foydalanish imkoniyatlarini yaratadigan, fermer xo‘jaliklari iqtisodiy barqarorligini, mahalliy hamjamiyat farovonligini va tabiiy-madaniy merosni saqlashni ta’minlovchi turizm shaklidir.

Tadqiqotning dolzarbligi O‘zbekistonda turizmning ustuvor iqtisodiy tarmoq sifatida rivojlanayotganligi bilan ham belgilanadi. “O‘zbekiston-2030” strategiyasida xorijiy turistlar sonini 15 million nafarga, turizm xizmatlari eksportini esa 5 milliard AQSH dollariga yetkazish maqsadi belgilangan. Biroq qishloq hududlarining turizm salohiyatidan foydalanish darajasi hamda inklyuziv infratuzilmaning rivojlanishi yetarli emas.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda agroturizm va inklyuziv turizm asosan mustaqil tadqiqot yo‘nalishlari sifatida o‘rganilgan bo‘lib, ularni yagona nazariy va tashkiliy model doirasida birlashtiruvchi yondashuv yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan konseptual model mavjud emas. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi inklyuziv agroturizmni rivojlantirishning xalqaro tajribasini umumlashtirish hamda uni O‘zbekiston sharoitida joriy etishning konseptual, klaster va tashkiliy-iqtisodiy modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari davlat siyosati, hududiy rivojlanish strategiyalari va fermer xo‘jaliklarida inklyuziv agroturizmni joriy etishning ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

2. Adabiyotlar sharhi

Hammabop (accessible) turizm nazariyasi nogironlikni tushunishdagi paradigma o‘zgarishiga, ya’ni tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o‘tishga asoslanadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, nogironlik shaxsning jismoniy holati emas, balki jamiyat va muhit tomonidan yaratilgan to‘siqlar natijasidir. Buhalis va Darcy [3] ushbu konsepsiyani “accessible tourism for all” tamoyili bilan rivojlantirib, universal dizaynni faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun emas, balki keksalar, kichik bolali oilalar va vaqtinchalik harakatlanish imkoniyati cheklangan barcha insonlar uchun qulay muhit yaratish vositasi sifatida talqin qilgan. Mazkur yondashuv inklyuziv agroturizmning nazariy poydevorini tashkil etadi, chunki fermer xo‘jaliklari va qishloq destinatsiyalarida mavjud jismoniy, axborot va ijtimoiy to‘siqlarni loyihalash bosqichidayoq bartaraf etish imkonini beradi.

Hammabop turizm nazariyasining rivojlanishiga Darcy [4], McKercher va Darcy [16], Michopoulou va Buhalis [17] , shuningdek Michopoulou va boshqalar [18] muhim hissa qo‘shgan. Ular nogironligi bo‘lgan sayyohlarning ehtiyojlari bir xil emasligini, asosiy muammolar jismoniy infratuzilma bilan bir qatorda axborotning yetishmasligi, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning

tayyorgarligi va jamiyatdagi stereotiplar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadilar. Ayniqsa, ishonchli accessibility axborotining mavjudligi sayohat to‘g‘risida qaror qabul qilishda hal qiluvchi omillardan biri sifatida baholanadi. Patterson va Pegg [19], shuningdek Patterson va boshqalar [20] esa aholining qarishi natijasida keksalar segmentining jadal kengayishini hamda ushbu guruh uchun qishloq va agroturizm mahsulotlari istiqbolli bozor ekanligini asoslaydi.

Agroturizm nazariyasi qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq. Lane [11] qishloq turizmining konseptual asoslarini ishlab chiqqan bo‘lsa, Lane va Kastenholz [13] zamonaviy qishloq turizmining evolyutsion rivojlanish yo‘nalishlarini tahlil qilgan. Phillip, Hunter va Blackstock [21] agroturizmni ishlayotgan fermer xo‘jaligi bilan bevosita bog‘liq faoliyat sifatida tipologiyalashtirgan, Tew va Barbieri [25] hamda Barbieri va Mshenga [2] esa uning fermer xo‘jaliklari daromadini diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini empirik jihatdan isbotlagan. Streifeneder [24] agroturizmni oddiy qishloq turizmidan ajratib turuvchi mezonlarni taklif etgan. Shunga qaramay, mazkur tadqiqotlarning aksariyatida inklyuzivlik masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyoga oid tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Aslam [1] mamlakatda agroturizmning rivojlanish salohiyatini tahlil qilib, uning hali boshlang‘ich bosqichda ekanligini qayd etadi. Matyakubov va Defrancesco [15] Italiya tajribasi asosida agroturizmning qishloq hududlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslagan bo‘lsa, Tog‘aymurodov [26] fermer xo‘jaliklari faoliyatini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini baholagan. Biroq ushbu tadqiqotlarda inklyuzivlik tamoyillari, universal dizayn va hammabop xizmatlarni tashkil etish masalalari deyarli ko‘rib chiqilmagan.

Inklyuziv turizmning amaliy asoslari xalqaro standartlar bilan mustahkamlangan. BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi [27], ISO 21902:2021 “Tourism and related services - Accessible tourism for all” standarti [28] hamda European Accessibility Act [7] turizm xizmatlarini barcha foydalanuvchilar uchun teng va xavfsiz tashkil etishning asosiy me’yorlarini belgilaydi. Ushbu hujjatlar milliy standartlar va sertifikatlashtirish tizimini shakllantirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hammabop turizm va agroturizm nazariyalari asosan mustaqil ilmiy yo‘nalishlar sifatida rivojlangan. Ularning kesishgan nuqtasi - inklyuziv agroturizm - yaxlit konseptual model sifatida yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, fermer xo‘jaliklarining inklyuziv xizmat ko‘rsatish salohiyati, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va samaradorlik indikatorlari bo‘yicha tadqiqotlar yetarli emas. Shu bois mazkur maqola inklyuziv agroturizmning konseptual modeli, klaster yondashuvi va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi


Tadqiqot sifatli (kvalitativ) va tahliliy yondashuvga asoslanib, bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy usullar majmuasidan foydalanadi. Tizimli tahlil inklyuziv agroturizmni davlat organlari, mahalliy hokimiyat, fermer xo‘jaliklari, turizm biznesi, nodavlat tashkilotlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar manfaatlarini birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqishga xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil Italiya, Fransiya, Ispaniya, Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Avstraliya tajribalarini yagona mezonlar asosida solishtirish imkonini berdi. Kontent tahlili 2010-2026-yillarda Scopus, Web of Science hamda xalqaro tashkilotlar manbalarini o‘rganishga asoslandi. SWOT va PESTEL tahlillari O‘zbekistonda inklyuziv agroturizmni rivojlantirishning ichki va tashqi omillarini baholash uchun qo‘llanildi. Mantiqiy umumlashtirish natijasida konseptual model, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm va amaliy

tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot asosan ikkilamchi ma'lumotlarga tayanganligi sababli, taklif etilgan modellarni empirik va statistik jihatdan tekshirish keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida qaraladi.

4. Natijalar va muhokama

4.1. Inklyuziv agroturizmning nazariy modeli

Inklyuziv agroturizmning nazariy modeli qishloq (agro) turizmi nazariyasi, inklyuziv (hammabop) turizm konsepsiyasi hamda barqaror rivojlanish tamoyillarining integratsiyasiga asoslanadi. Mazkur modelning asosiy g'oyasi shundan iboratki, agroturizm xizmatining iste'mol qiymati uning autentikligi (haqiqiy agrar tajribani taqdim etishi) va hammabopligi (barcha tashrif buyuruvchilar uchun teng foydalanish imkoniyatini yaratishi) uyg'unlashgandagina to'liq namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, Phillip va boshqalar [21] tomonidan taklif etilgan "autentiklik – turistning agrar faoliyat bilan aloqasi – faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaligi" tipologiyasiga universal dizayn komponenti qo'shilib, inklyuziv agroturizmni tavsiflovchi to'rt o'lchovli nazariy model shakllantiriladi. Mazkur model resurslar (kirituvchilar), universal dizayn tamoyillari asosida tashkil etilgan xizmatlar jarayoni, inklyuziv turistik tajriba natijalari hamda qishloq hududlarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligiga ta'sir o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiradi. Natijada, inklyuziv agroturizm nafaqat turistik mahsulot sifatini oshirish, balki qishloq jamoalarining barqaror rivojlanishi va ijtimoiy inklyuziyasini ta'minlovchi kompleks tizim sifatida namoyon bo'ladi.



1-rasm. Inklyuziv agroturizmning nazariy modeli komponentlari

Manba: muallif ishlanmasi ([21]; [3]; [13] asosida).

Modelning tahliliy yadrosi to‘rt kvadrantli konseptual mantiqqa asoslanadi. Vertikal o‘q agrar faoliyatning autentiklik darajasini ifodalaydi: yuqori qiymat ishlayotgan fermer xo‘jaligida haqiqiy qishloq xo‘jaligi jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatini, past qiymat esa agrar faoliyatning ramziy yoki yuzaki namoyon etilishini anglatadi. Gorizontal o‘q esa obyektning aksessibilik (hammaboplik) darajasini tavsiflaydi: yuqori qiymat universal dizayn tamoyillari asosida barcha tashrif buyuruvchilar uchun to‘liq foydalanish imkoniyatini, past qiymat esa jismoniy, axborot va xizmat ko‘rsatishdagi mavjud to‘siqlarni bildiradi. Mazkur modelda eng maqbul strategik holat yuqori autentiklik va yuqori aksessibilik kesishgan kvadrant hisoblanadi. Ushbu kvadrant haqiqiy agrar tajriba barcha toifadagi tashrif buyuruvchilar, jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun teng va to‘siqsiz taqdim etiladigan inklyuziv agroturizm modelini ifodalaydi. Taklif etilayotgan yondashuv Phillip va boshqalar [21] tomonidan ishlab chiqilgan agroturizm tipologiyasini Buhalis va boshqalar [3] ilgari surgan hammabop (accessible) turizm tamoyillari bilan integratsiyalash orqali yangi tahliliy asosni shakllantiradi. Natijada model alohida fermer xo‘jaligining strategik pozitsiyasini aniqlash, uning inklyuziv rivojlanish darajasini baholash hamda istiqboldagi transformatsiya yo‘nalishlarini belgilash imkonini beruvchi amaliy va analitik vosita sifatida xizmat qiladi.

4.2. O‘zbekiston imkoniyatlarining tahlili

O‘zbekistonning qishloq joylari inklyuziv agroturizm uchun boy resurs bazasiga ega. Mamlakat aholisining qariyb yarmi qishloq joylarda istiqomat qiladi va qishloq xo‘jaligiga tayanadi [1], bu esa fermer xo‘jaliklarini diversifikatsiya qilish va qo‘shimcha daromad yaratish uchun keng imkoniyat ochadi. Quyida asosiy resurs yo‘nalishlari va ularga bog‘liq muammolar baholanadi. O‘zbekistonning o‘ziga xos resurslari inklyuziv agroturizm uchun qo‘shimcha ustunlik beradi. Buyuk ipak yo‘li merosi, Samarqand, Buxoro va Xiva atrofidagi qishloqlar, Farg‘ona vodiysi bog‘-rog‘lari hamda tog‘ va dasht hududlari boy autentik tajriba manbai hisoblanadi. Mahalla va oilaviy mehmondo‘stlik an’anasi esa ijtimoiy inklyuziya uchun tabiiy zamin yaratadi. An’anaviy hunarmandchilik (Rishton kulolchiligi, Marg‘ilon atlasi, kashtachilik) va gastronomiya (milliy taomlar, mevachilik, asalarichilik, uzumchilik) turistik mahsulotga aylantirilsa, ular barcha toifadagi mehmonlar uchun moslashtirilishi mumkin. Asosiy vazifa - ushbu resurslarni universal dizayn tamoyillari asosida hammabop xizmat zanjiriga bog‘lashdir.

1-jadval.

O‘zbekistonda inklyuziv agroturizm resurslari va cheklovlari

Resurs yo‘nalishi	Salohiyat	Asosiy cheklov/muammo
Qishloq turizmi resurslari	Rang-barang landshaft, vohalar, tog‘ va dasht hududlari, mehmondo‘stlik an’anasi	Hammabop infratuzilma va standartlarning yo‘qligi
Fermer xo‘jaliklari	Ko‘p sonli dehqon va fermer xo‘jaliklari, diversifikatsiya istiqboli	Tadbirkorlik va xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalari yetishmasligi
Milliy hunarmandchilik	Kulolchilik, kashtachilik, gilamchilik, an’anaviy hunarlar	Turistik mahsulotga aylantirish va marketing zaif

Resurs yo‘nalishi	Salohiyat	Asosiy cheklov/muammo
Ekologik resurslar	Qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, ekoturizm zonalari	Ekologik moslashuv va hammabop so‘qmoqlar cheklangan
Gastronomik turizm	Milliy taomlar, mevachilik, uzumchilik, asalarichilik	Sifat, gigiyena va inklyuziv xizmat standartlari shakllanmagan
Institutsional muhit	Turizmga davlat e’tibori, soddalashtirilgan tartibga solish	Inklyuziv agroturizmga oid maxsus normativ baza yo‘q

Manba: muallif tahlili ([1], [15], [26] asosida).

O‘zbekiston uchun ham iqtisodiy imkoniyat, ham ijtimoiy zarurat mavjud. Bir tomondan, turizm xizmatlari eksportining jadal o‘sishi (2024-yilda ~3,52 mlrd dollar) va “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ambitsiyali maqsadlari qishloq segmentini rivojlantirish uchun qulay makroiqtisodiy muhit yaratadi. Boshqa tomondan, global keksalar va nogironligi bo‘lgan sayyohlar bozorining o‘sishi (1,3 mlrd kishi va ularning hamrohlari) mamlakatga arzon, autentik va mehnatsevar xizmat taklif eta oladigan istiqbolli yo‘nalish ochadi. Inklyuziv agroturizm, shuningdek, mamlakat ichidagi nogironligi bo‘lgan fuqarolar va keksalar uchun dam olish imkoniyatlarini kengaytiradi - ya’ni u nafaqat eksport, balki ichki ijtimoiy inklyuziya vositasidir.

Mavjud muammolarning eng muhimlari quyidagilar: (a) qishloq joylarida hammabop turar joy, sanitariya va transportning deyarli yo‘qligi; (b) inklyuziv agroturizmni tartibga soluvchi maxsus normativ-huquqiy hujjatlar va sifat standartlarining ishlab chiqilmaganligi; (c) fermerlar va xizmat ko‘rsatuvchilarda universal dizayn va inklyuziv xizmat bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi; (d) ishonchli aksilik axboroti va raqamli platformalarning rivojlanmaganligi; (e) statistik hisobning yo‘qligi sababli monitoring va baholashning qiyinligi. Bu muammolar McKercher va Darcy [16] hamda Michopoulou va Buhalis [17] aniqlagan munosabat va axborot to‘siqlari bilan mantiqan mos keladi.

4.3. SWOT tahlili

O‘zbekistonda inklyuziv agroturizmni rivojlantirish istiqbollarini kompleks baholash maqsadida SWOT tahlil usuli qo‘llanildi. Ushbu yondashuv orqali sohaning ichki muhitini tavsiflovchi kuchli va zaif jihatlar, shuningdek tashqi muhit bilan bog‘liq imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanib, ularning o‘zaro ta’siri quyidagi SWOT matritsasida tizimli ravishda aks ettirilgan.

2-jadval.

Inklyuziv agroturizmni rivojlantirishning SWOT tahlili

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
– Qishloq hududlarining boy tabiiy, gastronomik va milliy hunarmandchilik resurslariga egaligi. – Qishloq aholisining yuqori ulushi, milliy mehmondo‘stlik an’analari hamda mehmonlarni qabul qilish madaniyatining shakllanganligi.	– Hammabop (universal) infratuzilma hamda inklyuziv turizm standartlarining yetarli darajada shakllanmaganligi. – Inklyuziv agroturizmni tartibga soluvchi maxsus normativ-huquqiy bazaning hamda

Kuchli tomonlar (Strengths)	**Zaif tomonlar (Weaknesses)**
– Turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanganligi va tizimli institutsional islohotlarning amalga oshirilayotganligi. – Nisbatan arzon va mehnat sig‘imkor xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatining mavjudligi.	sohaga oid statistik hisob va monitoring tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi. – Inklyuziv xizmat ko‘rsatish bo‘yicha malakali kadrlar va mutaxassislarning, shuningdek amaliy kompetensiyalarning yetishmasligi. – Inklyuziv agroturizm mahsulotlarini targ‘ib etish bo‘yicha marketing faoliyatining sustligi hamda raqamli platformalarda obyektlarning aksessibiligi (hammabopligi) to‘g‘risidagi axborotning yetarli emasligi.
Imkoniyatlar (Opportunities)	**Tahdidlar (Threats)**
– Keksalar hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar segmentida turistik xizmatlarga bo‘lgan global talabning izchil ortib borayotganligi. – Inklyuziv agroturizmni rivojlantirishning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va mamlakatning turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor strategik yo‘nalishlari bilan uyg‘unligi. – UN Tourism, European Union, World Bank hamda boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, grant va donor mablag‘larini jalb etish imkoniyatlarining mavjudligi. – Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, “smart accessibility” yechimlari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali inklyuziv agroturizm xizmatlari sifati va foydalanish qulayligini oshirish imkoniyati.	– “Accessibility-washing” (“aksessibilikni sun’iy namoyish etish”) holatlarining yuzaga kelishi, ya’ni obyektlarning amalda mavjud bo‘lmagan hammaboplik xususiyatlarini reklama va marketing orqali asossiz targ‘ib qilinishi. – Inklyuziv infratuzilmani rivojlantirish uchun zarur investitsiya resurslari hamda malakali kadrlar salohiyatining yetarli emasligi. – Turistik talabning mavsumiy xususiyatga egaligi va bozor kon’yunkturasining beqarorligi natijasida xizmatlar rentabelligiga salbiy ta’sir ko‘rsatish ehtimoli. – Turizm faoliyatining kengayishi natijasida ekologik yuklamaning ortishi hamda tabiiy va mahalliy resurslardan nomutanosib foydalanish xavfining mavjudligi.

Manba: muallif ishlanmasi ([**Error! Reference source not found.**], [28],[1] *asosida).*

4.4. PESTEL tahlili

Makromuhit omillarini baholash davlat siyosati uchun ustuvor yo‘nalishlarni aniqlashga yordam beradi.

3-jadval.

Inklyuziv agroturizm rivojlanishining PESTEL tahlili


Omil	Mazmuni va ta’siri
Siyosiy (P)	Turizmni ustuvor tarmoq sifatida e’tirof etish; qishloq va agrar islohotlar; biroq inklyuziv agroturizmga oid yaxlit davlat siyosatining shakllanmaganligi.
Iqtisodiy (E)	Turizm xizmatlari eksportining o‘sishi (2024-yilda ~3,52 mlrd dollar); fermer daromadlarini diversifikatsiya qilish istiqboli; investitsiya va kredit resurslari taqchilligi.
Ijtimoiy (S)	Aholining qishloqdagi yuqori ulushi va mehmondo‘stlik; nogironlik va keksalik masalalariga ijtimoiy munosabatning o‘zgarishi; inklyuziya madaniyatini shakllantirish zarurati.
Texnologik (T)	Mobil ilovalar, aksilik xaritalari, onlayn bron qilish va raqamli marketing imkoniyatlari; qishloqda internet va AKT qamrovining notekisligi.
Ekologik (E)	Boy tabiiy va ekologik resurslar; suv tanqisligi, cho‘llanish va ekologik bosim xavfi; barqaror va organik dehqonchilik bilan bog‘lash imkoniyati.
Huquqiy (L)	Universal dizayn va hammabop turizm bo‘yicha milliy standartlar (mas., ISO 21902:2021 ga uyg‘unlashtirish) va nogironlar huquqlari (BMT CRPD) bazasini kuchaytirish zarurati.

Manba: muallif ishlanmasi ([28]; [10]; [27] asosida).

4.5. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning mualliflik modeli

Inklyuziv agroturizmni rivojlantirish faqat alohida fermer xo‘jaligi darajasida emas, balki ko‘p subyektli tizimli hamkorlik orqali samarali bo‘ladi. Mualliflik modeli oltita funksional blokni - boshqaruv, ishtirokchilar, infratuzilma, moliyalashtirish, marketing va monitoringni - birlashtiradi. Modelning markaziy g‘oyasi: davlat va mahalliy hokimiyat “yetakchi va tartibga soluvchi”, fermerlar va turoperatorlar “ijrochi”, NNTlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari “ekspert va nazoratchi” rolini bajaradi; AKT, transport va universal dizayn esa tizimni bog‘lovchi infratuzilma vazifasini o‘taydi.

Subyekt/blok	Funksiyalari	Vositalar
Davlat	Strategiya, normativ baza, standartlar, rag‘batlantirish	Qonunlar, milliy dasturlar, soliq imtiyozlari
Mahalliy hokimiyat	Hududiy reja, yer va infratuzilma, muvofiqlashtirish	Hududiy “yo‘l xaritasi”, grant tanlovlari
Fermerlar	Inklyuziv agromahsulot va xizmatlarni yaratish	Universal dizayn, fermada dam olish, gastronomiya
Turoperatorlar	Mahsulotni paketlash, sotish, sayohatni tashkli etish	Inklyuziv turlar, onlayn bron, aksilik kafolati
NNT va nogironlar tashkilotlari	Ekspertiza, audit, jamoatchilik nazorati, o‘qitish	Aksilik auditi, maslahat, qo‘llanmalar
Transport	To‘siqsiz yetib borish va joyda harakatlanish	Moslashtirilgan transport, transfer xizmati
AKT	Ishonchli aksilik axboroti va raqamli marketing	Ilovalar, aksilik xaritalari, veb-platformalar
Moliya institutlari	Investitsiya va kreditlash, hammoliyalashtiruv	Imtiyozli kredit, lizing, donor mablag‘lari
Monitoring	Indikatorlar bo‘yicha baholash va qayta aloqa	Statistik hisob, samaradorlik indikatorlari



2-rasm. Inklyuziv agroturizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi (mualliflik modeli)
Manba: muallif ishlanmasi.

Mexanizmning moliyaviy mantig‘i ko‘p manbali moliyalashtiruvga asoslanadi: davlat byudjeti va imtiyozlari (soliq ta’tillari, subsidiyalar) tizimni ishga tushiradi; imtiyozli kredit va lizing fermerlar uchun moslashuv (ramp, sanitariya, navigatsiya) xarajatlarini qoplaydi; donor va xalqaro tashkilotlar (UN Tourism, Jahon banki, EI) grant va texnik ko‘mak beradi; turoperatorlar va xususiy investorlar tijoriy mablag‘ kiritadi. Daromad esa fermer xo‘jaliklari, hunarmandlar, transport va xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida taqsimlanib, mahalliy iqtisodiyotda multiplikativ ta’sir hosil qiladi. Monitoring bloki indikatorlar bo‘yicha muntazam qayta aloqa ta’minlab, resurslarni samarali yo‘naltirish imkonini beradi.

5. Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari inklyuziv agroturizm agroturizm va hammabop turizm yondashuvlarining o‘zaro to‘ldiruvchi birlashuvi sifatida O‘zbekistonda qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi ekanini ko‘rsatdi. Xalqaro tajriba davlat siyosati, universal dizayn standartlari va moliyalashtirish mexanizmlarining uyg‘unligi muvaffaqiyatning hal qiluvchi sharti ekanidan dalolat beradi.

Quyida o‘n ikkidan ortiq asoslangan taklif yo‘nalishlar bo‘yicha tizimlashtiriladi.

Normativ-huquqiy:

- Inklyuziv agroturizmni tartibga soluvchi maxsus normativ hujjat qabul qilish va universal dizayn standartlarini (ISO 21902:2021 ga uyg‘unlashtirilgan holda) joriy etish.
- Agroturizm xizmatlari uchun ixtiyoriy “hammabop agroturizm” sertifikati va sifat belgisini joriy etish (Fransiya “Tourisme & Handicap” tajribasi asosida).

Institutsional:

- Hududiy darajada inklyuziv agroturizm klasterlarini tashkil etish va ularni muvofiqlashtiruvchi markazlar/uyushmalar tuzish.
- NNTlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlarini siyosat ishlab chiqish, audit va monitoring jarayoniga jalb etish.

Iqtisodiy: Fermerlar uchun inklyuziv moslashuv (ramp, sanitariya, navigatsiya)ni qoplovchi maqsadli subsidiya va imtiyozlarni joriy etish.

Investitsion: Davlat-xususiy sheriklik va donor (UN Tourism, Jahon banki, EI) mablag‘larini jalb etib, hammoliyalashtiruv fondini shakllantirish.

Infratuzilmaviy: Pilot hududlarda hammabop turar joy, transport-transfer va to‘siqsiz marshrutlardan iborat namunaviy zanjirlar yaratish.

Raqamlashtirish: Ishonchli aksilik axboroti bilan boyitilgan milliy raqamli platforma va aksilik xaritalarini ishlab chiqish.

Marketing: Inklyuziv agroturizmni keksalar va nogironligi bo‘lgan sayyohlar bozoriga yo‘naltirilgan maqsadli brending va promo bilan ilgari surish; “aksilik yuvish”ga yo‘l qo‘ymaslik.

Kadrlar tayyorlash: Fermerlar va xizmat ko‘rsatuvchilar uchun universal dizayn va inklyuziv xizmat bo‘yicha o‘quv modullari va malaka oshirish kurslarini joriy etish.

Xalqaro hamkorlik: UN Tourism, ENAT va yetakchi davlatlar bilan tajriba almashish, qo‘shma loyihalar va akademik hamkorlikni (mas., Ipak yo‘li xalqaro turizm universiteti) kuchaytirish.

Barqaror rivojlanish: Inklyuziv agroturizmni suv-resurs samaradorligi, organik dehqonchilik va ekologik muvozanat bilan bog‘lash hamda BRMlar (SDG 8, 10, 11) bilan moslashtirish.

Monitoring: Inklyuziv agroturizm bo‘yicha statistik hisobni yo‘lga qo‘yish va indikatorlar asosida muntazam baholash tizimini joriy etish.

Taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni amaliyotga joriy etish bosqichma-bosqich yondashuv asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda (qisqa muddatli istiqbolda) inklyuziv agroturizmni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, sifat standartlari va sertifikatlash mezonlarini ishlab chiqish, shuningdek 2-3 ta hududda namunaviy inklyuziv agroturizm klasterlarini tashkil etish hamda sohaga ixtisoslashgan kadrlarni tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichda (o‘rta muddatli istiqbolda) pilot loyihalar natijalari belgilangan indikatorlar asosida kompleks baholanadi, inklyuziv agroturizm obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlovchi yagona milliy raqamli platforma joriy etiladi hamda samaradorligi isbotlangan amaliyotlarni respublikaning boshqa hududlarida kengaytirish (scaling) choralari amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqichda (uzoq muddatli istiqbolda) inklyuziv agroturizm mamlakatning milliy turizm brendining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllantiriladi, xalqaro turizm bozoriga integratsiya

chuqurlashtiriladi, xorijiy investitsiyalar va strategik hamkorlikni kengaytirish orqali sohaning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

Mazkur bosqichma-bosqich yondashuv inklyuziv agroturizmni rivojlantirish bilan bog'liq institutsional va investitsion xatarlarni minimallashtirish, moliyaviy hamda tashkiliy resurslardan oqilona foydalanish, shuningdek amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini bosqichma-bosqich oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aslam, M. U. (2024). Agritourism as an emerging sustainable tourism industry in Uzbekistan. Sustainability, 16(17), 7519. https://doi.org/10.3390/su16177519
2. Barbieri, C., & Mshenga, P. M. (2008). The role of the firm and owner characteristics on the performance of agritourism farms. Sociologia Ruralis, 48(2), 166-183. https://doi.org/10.1111/j.1467-9523.2008.00450.x
3. Buhalis, D., Ambrose, I., & Darcy, S. (Eds.). (2012). Best practice in accessible tourism: Inclusion, disability, ageing population and tourism. Channel View Publications.
4. Darcy, S. (2010). Inherent complexity: Disability, accessible tourism and accommodation information preferences. Tourism Management, 31(6), 816-826. https://doi.org/10.1016/j.tourman.2009.08.010
5. De La Fuente-Robles, Y. M., Muñoz-de-Dios, M. D., Mudarra-Fernández, A. B., & Ricoy-Cano, A. J. (2020). Understanding stakeholder attitudes, needs and trends in accessible tourism: A systematic review of qualitative studies. Sustainability, 12(24), 10507. https://doi.org/10.3390/su122410507
6. Domínguez Vila, T., Darcy, S., & Alén González, E. (2015). Competing for the disability tourism market - A comparative exploration of the factors of accessible tourism competitiveness in Spain and Australia. Tourism Management, 47, 261-272. https://doi.org/10.1016/j.tourman.2014.10.008
7. European Commission. (2019). Directive (EU) 2019/882 of the European Parliament and of the Council on the accessibility requirements for products and services (European Accessibility Act). Official Journal of the European Union.
8. European Parliament. (2023). Rural tourism (Briefing, EPRS_BRI(2023)751464). European Parliamentary Research Service.
9. Flanigan, S., Blackstock, K., & Hunter, C. (2014). Agritourism from the perspective of providers and visitors: A typology-based study. Tourism Management, 40, 394-405. https://doi.org/10.1016/j.tourman.2013.07.004
10. International Organization for Standardization. (2021). ISO 21902:2021 - Tourism and related services - Accessible tourism for all - Requirements and recommendations. ISO.
11. Lane, B. (1994). What is rural tourism? Journal of Sustainable Tourism, 2(1-2), 7-21. https://doi.org/10.1080/09669589409510680
12. Lane, B. (1994). Sustainable rural tourism strategies: A tool for development and conservation. Journal of Sustainable Tourism, 2(1-2), 102-111. https://doi.org/10.1080/09669589409510687
13. Lane, B., & Kastenholz, E. (2015). Rural tourism: The evolution of practice and research approaches - towards a new generation concept? Journal of Sustainable Tourism, 23(8-9), 1133-1156. https://doi.org/10.1080/09669582.2015.1083997

14. Lim, J.-E. (2020). Understanding the discrimination experienced by customers with disabilities in the tourism and hospitality industry: The case of Seoul in South Korea. Sustainability, 12(18), 7328. https://doi.org/10.3390/su12187328
15. Matyakubov, U., & Defrancesco, E. (2018). Role of agritourism in sustainable rural development in Uzbekistan: Insights from the Italian experience. International Journal of Economics, Commerce and Management, 6(4), 88-102.
16. McKercher, B., & Darcy, S. (2018). Re-conceptualizing barriers to travel by people with disabilities. Tourism Management Perspectives, 26, 59-66. https://doi.org/10.1016/j.tmp.2018.01.003
17. Michopoulou, E., & Buhalis, D. (2013). Information provision for challenging markets: The case of the accessibility requiring market in the context of tourism. Information & Management, 50(5), 229-239. https://doi.org/10.1016/j.im.2013.04.001
18. Michopoulou, E., Darcy, S., Ambrose, I., & Buhalis, D. (2015). Accessible tourism futures: The world we dream to live in and the opportunities we hope to have. Journal of Tourism Futures, 1(3), 179-188. https://doi.org/10.1108/JTF-08-2015-0043
19. Patterson, I., & Pegg, S. (2011). Ageing travellers: Seeking an experience - not just a destination. In D. Buhalis, I. Ambrose, & S. Darcy (Eds.), Best practice in accessible tourism. Channel View Publications.
20. Patterson, I., Balderas-Cejudo, A., & Pegg, S. (2021). Tourism preferences of seniors and their impact on healthy ageing. Anatolia, 32(4), 553-564. https://doi.org/10.1080/13032917.2021.1999753
21. Phillip, S., Hunter, C., & Blackstock, K. (2010). A typology for defining agritourism. Tourism Management, 31(6), 754-758. https://doi.org/10.1016/j.tourman.2009.08.001
22. Porto, N., Rucci, A. C., Darcy, S., Garbero, N., & Almond, B. (2019). Critical elements in accessible tourism for destination competitiveness and comparison: Principal component analysis from Oceania and South America. Tourism Management, 75, 169-185. https://doi.org/10.1016/j.tourman.2019.04.012
23. Small, J., Darcy, S., & Packer, T. (2012). The embodied tourist experiences of people with vision impairment: Management implications beyond the visual gaze. Tourism Management, 33(4), 941-950. https://doi.org/10.1016/j.tourman.2011.09.015
24. Streifeneder, T. (2016). Agriculture first: Assessing European policies and scientific typologies to define authentic agritourism and differentiate it from countryside tourism. Tourism Management Perspectives, 20, 251-264. https://doi.org/10.1016/j.tmp.2016.10.003
25. Tew, C., & Barbieri, C. (2012). The perceived benefits of agritourism: The provider's perspective. Tourism Management, 33(1), 215-224. https://doi.org/10.1016/j.tourman.2011.02.005
26. Tog‘aymurodov, E. (2022). Agritourism and farmers' diversification in Samarkand Region. Academic Research in Educational Sciences, 3(3), 28-34.
27. United Nations. (2006). Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD). United Nations.
28. UN Tourism (UNWTO). (2024). Accessible tourism for all: Guidelines and resources. UN Tourism.
29. UNWTO. (2013). Recommendations on accessible tourism for all. World Tourism Organization.

UDK: 338.48:006.83(575.1)

INKLYUZIV TURIZM SOHASIDA XALQARO STANDARTLARNI MILLIY AMALIYOTGA JORIY ETISH MASALALARI

Amirov Akmal Merojovich
SH.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti
ORCID: 0000-0001-6168-8791
https://doi.org/10.5281/zenodo.21299118

Annotatsiya. *Maqolada inklyuziv turizm sohasidagi xalqaro standartlar va ularni O‘zbekiston amaliyotiga joriy etish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda BMTning Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi (CRPD), ISO 21902:2021 hamda UN Tourism tavsiyalari o‘rganilgan. Yevropa Ittifoqi, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi qiyosiy tahlil asosida baholangan. Muallif tomonidan xalqaro standartlarni milliy amaliyotga moslashtirish mexanizmi, inklyuziv turizmni rivojlantirishning konseptual modeli, turizm obektlarini baholash indikatorlari tizimi va Inclusive Tourism Accessibility Index (ITAI) metodikasi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari milliy standartlar, texnik reglamentlar asosidagi amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv turizm, barcha uchun qulay turizm, universal dizayn, xalqaro standartlar, texnik reglament, inklyuzivlik indeksi.*

Abstract. *This article examines international standards in the field of inclusive tourism and their implementation in Uzbekistan. The study analyzes the* ***United Nations Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD), ISO 21902:2021****, and the recommendations of* ***UN Tourism.*** *The experiences of the European Union, the United States, Canada, Australia, Japan, and South Korea are comparatively evaluated to identify best practices for promoting inclusive tourism. The author proposes a mechanism for adapting international standards to the national context, develops a conceptual model for inclusive tourism development, establishes a system of indicators for assessing tourism facilities, and introduces the* ***Inclusive Tourism Accessibility Index (ITAI)*** *methodology. The research findings provide a scientific basis for developing national standards, technical regulations, and practical recommendations to support the implementation of inclusive tourism in Uzbekistan.*

Keywords: *inclusive tourism; accessible tourism for all; universal design; international standards; technical regulations; Inclusive Tourism Accessibility Index (ITAI); accessibility index.*

Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda turizm nafaqat iqtisodiy o‘sish va ish o‘rinlari yaratishning muhim manbai, balki inson huquqlari, ijtimoiy tenglik va hayot sifatini oshirishning muhim vositasi sifatida ham e’tirof etilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va Jahon bankining baholashlariga ko‘ra, dunyo aholisining taxminan 15 foizi u yoki bu shakldagi nogironlik bilan yashaydi, aholining keksayishi esa bu ko‘rsatkichni yanada oshirmoqda [22]. Shu bois «barcha uchun qulay turizm» (accessible tourism) yoki inklyuziv turizm konsepsiyasi zamonaviy turizm siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda [19].

Inklyuziv turizm - bu yoshi, jismoniy, sensor yoki kognitiv imkoniyatlaridan qat'i nazar, barcha insonlarning turistik xizmatlardan teng shartlarda va mustaqil ravishda foydalana olishini ta'minlashga qaratilgan yondashuvdir [11]. Ushbu yondashuv nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar, kichik bolali oilalar, vaqtincha harakatlanish imkoniyati cheklangan shaxslar hamda boshqa kamharakat aholi guruhlarining manfaatlarini qamrab oladi. Shu ma'noda inklyuziv turizm alohida ijtimoiy xizmat emas, balki turizm mahsuloti va xizmatlarining sifati hamda raqobatbardoshligini belgilovchi muhim mezon hisoblanadi.

Xalqaro hamjamiyat mazkur sohani tartibga soluvchi qator muhim hujjatlarni qabul qilgan. Jumladan, BMTning Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (CRPD) [23], ISO 21902:2021 «Tourism and related services - Accessible tourism for all» xalqaro standarti hamda UN Tourism tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar inklyuziv turizmni tashkil etishning huquqiy va metodologik asosini belgilab beradi. Mazkur hujjatlar davlatlar uchun universal dizayn, xizmatlardan teng foydalanish va barcha uchun qulay muhit yaratish bo'yicha yagona yondashuvlarni shakllantirgan.

O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv siyosatni rivojlantirish bo'yicha muhim huquqiy asoslar yaratildi. Xususan, 2020 yilda «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi [25], 2021 yilda esa mamlakat BMTning Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qildi [26]. Shu bilan birga, turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan 2027 yilni «Barqaror va bardoshli turizmning xalqaro yili» deb e'lon qildi [21]. Shu bilan birga, mamlakatda inklyuziv turizm sohasini maxsus tartibga soluvchi milliy standartlar va texnik reglamentlar hozircha yetarli darajada shakllanmagan. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda asosan ijtimoiy himoya va shaharsozlik talablari aks etgan bo'lib, turizm obyektlari va xizmatlarining hammabopligi (accessibility) bo'yicha aniq talablar mavjud emas. Bu esa xalqaro standartlarni milliy amaliyotga moslashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Inklyuziv turizm bo'yicha ilmiy tadqiqotlar XX asrning 80-yillarida dam olish va bo'sh vaqtdan foydalanishdagi cheklovlarni (leisure constraints) o'rganishdan boshlangan. R.Smith nogironligi bo'lgan shaxslarning turizmda ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni ichki, muhit bilan bog'liq va o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keluvchi to'siqlarga ajratgan bo'lib, mazkur yondashuv keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos vazifasini bajargan [18].

Inklyuziv turizmning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishida D. Buhalis va S. Darcyning hissasi alohida ahamiyatga ega. Ular «Accessible Tourism: Concepts and Issues» [3] hamda «Best Practice in Accessible Tourism» [4] asarlarida inklyuziv turizmni universal dizayn, teng imkoniyatlar va barcha uchun mustaqil ishtirok tamoyillariga asoslangan tizim sifatida izohlaganlar. Darcy va Dickson esa «barcha uchun qulay turizm» konsepsiyasini turistik mahsulotlar, xizmatlar va muhitni universal dizayn asosida shakllantirish orqali barcha insonlarning teng va mustaqil ishtirokini ta'minlash jarayoni sifatida ta'riflagan [6].

So'nggi yillarda tadqiqotlar inklyuziv turizmning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini keng yoritmoqda. Buhalis va Michopoulou accessibility sohasida ishonchli axborotning mavjudligi turistik destinatsiya raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanini asoslagan [5]. Michopoulou, Darcy, Ambrose va Buhalis esa demografik o'zgarishlar, universal dizayn, BMTning Nogironligi

bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi (CRPD) hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatib bergan [14].

Inklyuziv turizmda to‘siqlar nazariyasi muhim o‘rin tutadi. McKercher va Darcy nogironligi bo‘lgan shaxslar sayohatiga ta’sir etuvchi omillarni shaxsiy, tashkiliy va muhit bilan bog‘liq to‘siqlarga ajratib, ularning aksariyati xizmatlar va infratuzilmani takomillashtirish orqali bartaraf etilishi mumkinligini ta’kidlaydilar [13]. Pagán tadqiqotlari esa moslashtirilgan muhit yaratilganda nogironligi bo‘lgan shaxslarning turistik faolligi sezilarli darajada oshishini ko‘rsatadi [17].

Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli hammaboplik (digital accessibility) alohida yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Domínguez Vila, Alén González va Darcy milliy turizm tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari xalqaro WCAG talablariga to‘liq javob bermasligini aniqlab, axborot hammabopligi jismoniy muhit kabi muhim ahamiyatga ega ekanini isbotlagan [9]. Universal dizayn konsepsiyasi esa R. Mace tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarga asoslanib, keyinchalik ISO 21902:2021 xalqaro standartida o‘z aksini topgan [11].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahon ilm-fanida inklyuziv turizmning nazariy va amaliy asoslari yetarlicha shakllangan bo‘lsa-da, xalqaro standartlarni rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish, milliy standartlar va baholash tizimini ishlab chiqish masalalari hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur ilmiy bo‘shliq ushbu tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot sifat (qualitative) va qiyosiy tahlil usullariga asoslangan kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida hujjatlarni tahlil qilish (document analysis) usuli yordamida ISO 21902:2021 xalqaro standarti, BMTning Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi (CRPD), UN Tourism tomonidan ishlab chiqilgan me’yoriy-uslubiy hujjatlar hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari tizimli ravishda o‘rganildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil asosida Yevropa Ittifoqi, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya va Janubiy Koreyaning inklyuziv turizmni tartibga solish bo‘yicha huquqiy va institutsional tajribasi baholanib, ularning milliy modellarining o‘ziga xos jihatlari aniqlashtirildi. Tizimli-tarkibiy tahlil natijasida xalqaro standartlarni O‘zbekiston sharoitida milliy amaliyotga joriy etishning konseptual modeli hamda Inklyuziv turizm hammabopligi indeksi (Inclusive Tourism Accessibility Index - ITAI)ni hisoblash metodikasi ishlab chiqildi. Mazkur metodika baholash mezonlarini klasterlash, indikatorlarni ball shkala asosida baholash, vazn koeffitsiyentlarini qo‘llash va yakuniy natijalarni 0-100 ballik shkala bo‘yicha normallashtirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning axborot bazasini Scopus va Web of Science ma’lumotlar bazalarida indekslangan ilmiy maqolalar, ISO standartlari, UN Tourism va Yevropa Komissiyasi hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari tashkil etdi.

Asosiy natijalar va muhokama

Inklyuziv turizm zamonaviy ilmiy adabiyotlarda barcha insonlarning yoshi, jismoniy yoki sensor imkoniyatlaridan qat’i nazar, turizm xizmatlaridan teng va mustaqil foydalanishini ta’minlovchi konsepsiya sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuv CRPD, ISO 21902:2021 va UN Tourism tavsiyalarida inson huquqlari, ijtimoiy integratsiya hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida e’tirof etiladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, inklyuziv turizm yangi iste’mol segmentlarini jalb etish, mavsumiylikni kamaytirish va destinatsiyalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida esa boy tarixiy-madaniy merosni saqlagan holda

turizm infratuzilmasini xalqaro accessibility standartlari asosida moslashtirish inklyuziv turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu tariqa, xalqaro tizim uch darajali tuzilmaga ega: huquqiy-majburiy asos (CRPD), texnik-standart asos (ISO 21902:2021) va amaliy-metodik asos (UN Tourism tavsiyalari). Bu uchlik birlashib, inklyuziv turizmning yagona xalqaro meyoriy arxitekturasini tashkil etadi. 1-jadvalda ushbu asosiy hujjatlarning qiyosiy tavsifi keltirilgan.

1-jadval.

Inklyuziv turizm sohasidagi asosiy xalqaro hujjatlarning qiyosiy tavsifi

Hujjat	Qabul qilingan yil / maqomi	Qamrovi va mazmuni	Majburiylik darajasi
CRPD (Nogironlar huquqlari konvensiyasi)	2006 y.; xalqaro shartnoma	Inson huquqlari, accessibility (9-modda), madaniy hayot va dam olishda ishtirok (30-modda)	Ratifikatsiya qilgan davlatlar uchun majburiy
ISO 21902:2021	2021 y.; xalqaro standart	Siyosat, strategiya, infratuzilma, mahsulot va xizmatlarning accessibility talablari va tavsiyalari	Ixtiyoriy (milliy standart sifatida qabul qilinsa - majburiy)
UN Tourism tavsiyalari	2015-2024 yy.; metodik hujjatlar	Standartni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha subsektorlar uchun amaliy qo‘llanmalar	Tavsiyaviy

Manba: muallif tomonidan CRPD, ISO 21902:2021 va UN Tourism hujjatlari asosida tuzilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi inklyuziv turizm standartlarini joriy etishning turli modellarini namoyon etadi. Yevropa Ittifoqida ushbu yo‘nalish European Accessibility Act [7]. hamda ENAT [10]. tarmog‘i orqali standartlashtirish va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. AQSHda Americans with Disabilities Act (ADA) va Accessible Design Standards turizm infratuzilmasiga nisbatan majburiy texnik talablarni belgilaydi [2]. Kanada va Avstraliyada inklyuzivlikni bosqichma-bosqich joriy etishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar shakllangan [1; 8]. Yaponiya va Janubiy Koreya esa universal dizayn, barrier-free siyosati hamda accessibility sertifikatlashtirish tizimlarini muvaffaqiyatli qo‘llamoqda [6; 7]. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston uchun texnik standartlarni bosqichma-bosqich majburiy joriy etish, sertifikatlashtirish va iqtisodiy rag‘batlantirishni uyg‘unlashtiruvchi gibrid model eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Ushbu model xalqaro standartlarni milliy amaliyotga samarali moslashtirish va turizm obyektlarining hammabopligini oshirish imkonini beradi.

Turistik infratuzilmada universal dizayn tamoyillarini qo‘llash

Universal dizayn (Universal Design) inklyuziv turizmning metodologik asosini tashkil etib, turizm obyektlari va xizmatlarini barcha foydalanuvchilar uchun dastlabki loyihalash bosqichidayoq qulay yaratishni nazarda tutadi [12;11]. Uning asosiy tamoyillari teng foydalanish, moslashuvchanlik, sodda foydalanish, idrok etiladigan axborot, xavfsizlik, kam jismoniy kuch sarfi hamda yetarli makon va o‘lchamni qamrab oladi. Turizm infratuzilmasida ushbu tamoyillar to‘siqsiz kirish, moslashtirilgan mehmonxona xonalari, taktil va audio navigatsiya, barrier-free transport hamda raqamli accessibility yechimlari orqali amalga oshiriladi. Tarixiy meros obyektlarida esa

reversible (qaytariladigan texnologiyalar) *va minimally intrusive texnologiyalarni* **(minimal aralashuvli texnologiyalar)** *qo'llash merosni saqlagan holda hammaboplikni ta'minlash imkonini beradi [20]. Shu bois universal dizaynni yangi turizm obyektlarini loyihalashning majburiy talabi sifatida joriy etish O'zbekiston turizm sohasining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qiladi.*

O'zbekistonda inklyuziv turizmni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv turizmga oid normativ-huquqiy baza so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi, biroq u hali ham tarqoq xususiyatga ega. Asosiy huquqiy negizni «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-641) hamda BMTning Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining ratifikatsiyasi (O'RQ-695) tashkil etadi [25; 26]. Turizm sohasidagi munosabatlar «Turizm to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solingan bo'lsa-da, unda inklyuzivlik va accessibility talablariga alohida e'tibor qaratilmagan. Shuningdek, qurilish me'yorlari nogironligi bo'lgan shaxslar uchun umumiy qulaylik talablarini belgilaydi, ammo turizm infratuzilmasining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq qamrab olmaydi [23]. Natijada, xalqaro standartlarni milliy amaliyotga integratsiya qiluvchi yagona standart yoki texnik reglament mavjud emas. Shu bois ISO 21902:2021 talablari asosida inklyuziv turizmning milliy standartlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

1-jadval.

O'zbekiston milliy normalari va ISO 21902:2021 xalqaro standarti o'rtasidagi asosiy farqlar

№	Tahlil mezoni	O'zbekiston milliy amaliyoti	ISO 21902:2021 xalqaro standarti	O'zbekiston uchun takomillashtirish yo'nalishi
1	Qamrov doirasi	Asosiy e'tibor jismoniy qulaylikka (pandus, lift, kirish yo'laklari) qaratilgan.	Jismoniy, sensor, kognitiv, axborot va xizmat hammabopligini qamrab oladi.	Hammaboplikning barcha komponentlarini milliy standartlarga kiritish.
2	Loyihalash yondashuvi	Mavjud obyektlarni keyinchalik moslashtirish (retrofitting) ustun.	Universal dizayn tamoyili asosida dastlabki loyihalash bosqichida hammaboplik ta'minlanadi.	Yangi turizm obyektlarida universal dizayn talablarini majburiy joriy etish.
3	Tartibga solish obyekti	Asosan alohida binolar va inshootlarga qaratilgan.	Davlat siyosati, destinatsiya, turoperator, transport, mehmonxona, axborot va xizmatlarni qamrab olgan yaxlit turizm ekotizimi sifatida baholaydi.	Turizm ta'minot zanjiri bo'yicha kompleks standartlar ishlab chiqish.
4	Baholash mexanizmi	Turizm obyektlarini inklyuzivlik bo'yicha baholash va	Aniq baholash mezonlari, audit va sertifikatlashtirish amaliyoti qo'llaniladi.	Milliy sertifikatlashtirish tizimi va Inclusive Tourism Accessibility

		sertifikatlashtirish tizimi mavjud emas.		Index (ITAI)ni joriy etish.
5	Axborot hammabopligi	Turistlar uchun obyektlarning hammabopligi haqida yagona axborot bazasi shakllanmagan.	Turistlarga oldindan ishonchli accessibility axborotini taqdim etish majburiy talab hisoblanadi (ENAT, OSSATE tajribasi).	Milliy raqamli accessibility platformasi va yagona axborot reyestrini yaratish.

Manba: Muallif tomonidan ISO 21902:2021, CRPD, UN Tourism tavsiyalari hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari asosida tuzilgan.

O‘zbekiston sharoitida xalqaro standartlarni joriy etishdagi muammolar

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda xalqaro inklyuziv turizm standartlarini joriy etishda quyidagi asosiy muammolarni aniqladi:

institutsional-meyoriy bo‘shliq: inklyuziv turizmni maxsus tartibga soluvchi yaxlit milliy standart va texnik reglament mavjud emas;

tarmoqlararo muvofiqlashtirish yetishmasligi: turizm, ijtimoiy himoya, shaharsozlik va transport sohalari normalari o‘zaro bog‘lanmagan;

tarixiy meros obyektlarining o‘ziga xosligi: YUNESKO ro‘yxatidagi obyektlarda accessibility ni ta’minlash konservatsiya talablari bilan muvozanatni talab qiladi;

moliyaviy resurslar cheklanganligi: infratuzilmani moslashtirish katta sarmoya talab qiladi, xususiy sektor uchun rag‘batlantirish mexanizmlari kam;

axborot va ma’lumotlar bazasining yo‘qligi: obyektlar accessibility holati to‘g‘risida tizimli ma’lumot va turistlar uchun ishonchli axborot platformasi mavjud emas;

inson kapitali bilan bog‘liq muammo: turizm sohasi xodimlari va mutaxassislarining inklyuziv xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tayyorgarligi yetarli emas;

ijtimoiy stereotiplar: nogironligi bo‘lgan shaxslarning turizm faolligi yetarlicha rag‘batlantirilmagan va jamoatchilik ongi shakllanmagan.

Sanab o‘tilgan muammolarni tahlil qilish ularning o‘zaro bog‘liq va ikkita chuqur ildizga ega ekanligini ko‘rsatadi. Birinchidan, institutsional ildiz: accessibility masalasi ayni paytda asosan ijtimoiy himoya siyosati doirasida, ya’ni «yordam va imtiyoz» paradigmasida qaralmoqda, vaholanki zamonaviy xalqaro yondashuv uni inson huquqlari va iqtisodiy imkoniyat (turistik bozor segmenti) sifatida talqin qiladi. Ushbu paradigma farqi tufayli turizm obyektlaridagi accessibility ko‘pincha keyinga suriladigan «qo‘shimcha xarajat» sifatida, na investitsiya sifatida tushuniladi. Ikkinchidan, metodologik ildiz: milliy amaliyotda obyektlarning qulaylik darajasini o‘lchaydigan yagona mezonlar tizimi va baholash vositasi mavjud emasligi sababli, na muammoning ko‘lami aniq miqdorda baholangan, na erishilgan taraqqiyot muntazam kuzatib borilmoqda. Boshqacha aytganda, o‘lchab bo‘lmaydigan narsani boshqarib ham bo‘lmaydi. Shu bois ushbu tadqiqotda taklif etilayotgan ko‘rsatkichlar tizimi va inklyuzivlik indeksi aynan metodologik ildizni bartaraf etishga, konseptual model esa institutsional ildizni hal qilishga qaratilgan.

Tadqiqotimiz asosiy natijasi bu turizm obyektlarining inklyuzivlik darajasini baholashning ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirishdir. Tizim ISO 21902:2021 va CRPD talablaridan kelib chiqqan

holda, accessibility ning besh klasterini qamrab oladi. Har bir klaster bir necha indikatordan iborat bo‘lib, ular obyektiv tekshirilishi mumkin bo‘lgan tarzda shakllantirilgan. 2-jadvalda ko‘rsatkichlar tizimining tarkibi va vazn koeffitsiyentlari keltirilgan.

2-jadval.

Inklyuziv turizm obyektlarini baholash ko‘rsatkichlari tizimi

№	Klaster	Asosiy indikatorlar (namuna)	Vazn koeffitsiyenti (w)
1	Jismoniy accessibility	to‘siqsiz kirish, pandus/lift, eshik kengligi, moslashtirilgan sanitar tugun, harakatlanish yo‘laklari	0,25
2	Sensor accessibility	taktil yo‘naltirish, Brayl/yirik shrift, ovozli axborot, induksion halqa, ishora tili xizmati	0,20
3	Kognitiv accessibility	sodda til, aniq va izchil navigatsiya, tushunarli piktogrammalar, yordam xizmati	0,15
4	Axborot accessibility	veb-sayt qulayligi (WCAG), obyekt accessibility ma’lumotlarining oldindan ochiqligi	0,20
5	Xizmat accessibility	xodimlar tayyorgarligi, inklyuziv xizmat reglamenti, favqulodda evakuatsiya rejasi	0,20
	Jami	-	**1,00**

Manba: muallif ishlanmasi. Vazn koeffitsiyentlari ekspertlar bahosi orqali aniqlashtirilishi tavsiya etiladi.

Har bir indikator uch darajali shkala bo‘yicha baholanadi: 0 ball - talab bajarilmagan; 1 ball - qisman bajarilgan; 2 ball - to‘liq bajarilgan. Bunday shkala baholashni soddalashtiradi va turli ekspertlar natijalarining qiyoslanuvchanligini ta’minlaydi. Klasterlar vazni ularning turistning umumiy tajribasiga ta’siri darajasiga ko‘ra belgilangan: jismoniy accessibility eng yuqori vaznga ega, chunki usiz boshqa jabhalardan foydalanish ko‘pincha imkonsiz bo‘ladi.

Tadqiqotning keyingi markaziy natijasi - turizm obyektining inklyuzivlik darajasini yaxlit miqdoriy ko‘rsatkichda ifodalovchi Inklyuzivlik indeksi (Inclusive Tourism Accessibility Index, ITAI) metodikasidir. Indeks yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar tizimini integral bahoga aylantiradi va obyektlarni taqqoslash, reytinglash hamda monitoring qilish imkonini beradi.

ITAI quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$ITAI = (\Sigma\, i=1^{n} (wi \cdot Si) / Smax) \times 100$$

bu yerda: wi - i-klasterning vazn koeffitsiyenti ($\Sigma w_i = 1$); Si - i-klaster bo‘yicha obyektning to‘plangan balli (indikatorlar ballari yig‘indisi); Smax - mumkin bo‘lgan maksimal ball; natija 0 dan 100 gacha shkalada normallashtiriladi.

Olingan ITAI qiymati asosida obyektlar beshta inklyuzivlik darajasiga toifalanadi. 3-jadvalda indeks shkalasi va ularga mos inklyuzivlik darajalari keltirilgan.

3-jadval.

ITAI indeksi shkalasi va inklyuzivlik darajalari

ITAI qiymati	Daraja	Tavsif
85-100	**A - To‘liq inklyuziv**	Obyekt barcha klasterlar bo‘yicha xalqaro standart talablariga to‘liq mos; «Barrier-Free» sertifikatiga nomzod.
70-84	**B - Yuqori**	Asosiy accessibility ta’minlangan, ayrim klasterlarda takomillashtirish zarur.
50-69	**C - O‘rta**	Jismoniy accessibility qisman mavjud, sensor/kognitiv/axborot jabhalari zaif.
30-49	**D - Past**	Faqat bazaviy elementlar mavjud; keng qamrovli moslashtirish talab etiladi.
0-29	**E - Inklyuziv emas**	Accessibility amalda ta’minlanmagan; turistlar uchun jiddiy to‘siqlar mavjud.

Manba: muallif ishlanmasi.

Inklyuziv turizm hammabopligi indeksi (ITAI) *turizm obyektlarining inklyuzivlik darajasini kompleks baholash va monitoring qilishga xizmat qiladi. Indeks davlat organlari uchun milliy reytinglarni shakllantirish, investorlar va tadbirkorlar uchun ustuvor investitsiya yo‘nalishlarini aniqlash, turistlar uchun esa ishonchli axborot manbaini yaratish imkonini beradi. ITAI metodikasi kompozit indikatorlarni ishlab chiqishning xalqaro tamoyillariga asoslanib, indikatorlarni tanlash, vaznlash, normallashtirish va agregatsiyalash bosqichlarini o‘z ichiga oladi [16]. Mazkur indeks ICF hamda CRPDning ijtimoiy modeliga mos ravishda shaxsning imkoniyatlarini emas, balki muhitning hammaboplik darajasini baholaydi. Shuningdek, u accessibility dinamikasini kuzatish va davlat siyosati samaradorligini miqdoriy baholash imkonini beradi [19].*

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari inklyuziv turizm sohasida xalqaro standartlarni O‘zbekiston milliy amaliyotiga joriy etish huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan dolzarb ekanligini tasdiqladi. Tahlillar CRPD, ISO 21902:2021 va UN Tourism tavsiyalari inklyuziv turizmni rivojlantirishning asosiy me’yoriy bazasini tashkil etishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda inklyuziv turizmni tartibga soluvchi yagona milliy standart va baholash tizimining mavjud emasligi aniqlandi. Tadqiqot doirasida xalqaro standartlarni milliy sharoitga moslashtirishning konseptual modeli, bosqichma-bosqich joriy etish mexanizmi hamda **Inclusive Tourism Accessibility Index (ITAI)** metodikasi ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuv turizm obyektlarining hammabopligini baholash, davlat monitoringini takomillashtirish va investitsiya ustuvorliklarini belgilash imkonini beradi. Kelgusida ITAI metodikasini amaliy sinovdan o‘tkazish, ekspert baholash orqali indikatorlar vaznini aniqlashtirish hamda uning turizm samaradorligiga ta’sirini empirik baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida davlat siyosati uchun quyidagi aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. «Turizm to‘g‘risida»gi Qonunga (O‘RQ-549) «inklyuziv turizm» va «accessibility» tushunchalarini hamda turizm obyektlarining qulaylik talablarini belgilovchi normalarni kiritish;
2. ISO 21902:2021 xalqaro standarti asosida milliy standart (O‘z DSt) va turizm obyektlari accessibility bo‘yicha texnik reglamentni ishlab chiqib tasdiqlash, ularni tarixiy meros obyektlari uchun maxsus rejim bilan to‘ldirish;
3. Turizm bo‘yicha vakolatli organ huzurida inklyuziv turizmni muvofiqlashtiruvchi idoralararo mexanizm tashkil etish va unga nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlarini jalb etish;
4. Turizm obyektlarining inklyuzivlik darajasini baholash uchun ITAI indeksi va ixtiyoriy «Barrier-Free» sertifikati tizimini joriy etish hamda milliy accessibility ma’lumotlar bazasi va raqamli platformani yaratish;
5. Accessibility talablariga moslashgan obyektlar uchun soliq va kredit imtiyozlari, grant va subsidiyalarni joriy etish hamda inklyuziv infratuzilma loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish;
6. Yangi qurilayotgan turizm obyektlari loyihalarida universal dizayn talablarini loyiha ekspertizasi va litsenziyalashning majburiy sharti sifatida belgilash;
7. Turizm sohasi xodimlari va mutaxassislari uchun inklyuziv xizmat ko‘rsatish bo‘yicha o‘quv dasturlarini joriy etish va jamoatchilik ongini shakllantirish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Accessible Canada Act. S.C. 2019, c.10. -Ottawa: Government of Canada, 2019.
2. Americans with Disabilities Act of 1990 (ADA). -Washington, DC: U.S. Department of Justice, 1990.
3. Buhalis D., Darcy S. (Eds.). *Accessible Tourism: Concepts and Issues*. -Bristol : Channel View Publications, 2011.
4. Buhalis D., Darcy S., Ambrose I. *Best Practice in Accessible Tourism*. -Bristol : Channel View Publications, 2012.
5. Buhalis D., Michopoulou E. *Information-enabled Tourism Destination Marketing* // Tourism Review. -2011.
6. Darcy S., Dickson T. *A Whole-of-Life Approach to Tourism: The Case for Accessible Tourism Experiences* // Journal of Hospitality and Tourism Management. -2009. -Vol. 16(1). -P. 32–44.
7. Directive (EU) 2019/882 of the European Parliament and of the Council of 17 April 2019 on the accessibility requirements for products and services // Official Journal of the European Union. -2019.
8. Disability Discrimination Act 1992; Disability Standards for Accessible Public Transport 2002. -Canberra: Australian Government.
9. Domínguez Vila T., Alén González E., Darcy S. *Accessible Tourism Online Resources and Website Accessibility*. -2018.
10. European Network for Accessible Tourism (ENAT). *Accessible Tourism in Europe*. -Brussels: ENAT, 2023.
11. ISO 21902:2021. *Tourism and Related Services -Accessible Tourism for All -Requirements and Recommendations*. -Geneva : ISO, 2021.

12. Mace R. *Universal Design: Housing for the Lifespan of All People*. -Raleigh: North Carolina State University, 1998.
13. McKercher B., Darcy S. *Reconceptualising Barriers to Travel by People with Disabilities*. -Bristol : Channel View Publications, 2018.
14. Michopoulou E., Darcy S., Ambrose I., Buhalis D. *Accessible Tourism Futures: The World We Dream to Live In and the Opportunities We Hope to Have* // Journal of Tourism Futures. -2015. -Vol. 1(3). -P. 179–188.
15. Ministry of Land, Infrastructure, Transport and Tourism of Japan. *Barrier-Free Policy in Tourism*. -Tokyo, 2023.
16. OECD; European Commission. *Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide*. – Paris: OECD Publishing, 2008.
17. Pagán R. *Time Allocation in Tourism for People with Disabilities* // Annals of Tourism Research. -2012. -Vol. 39(3). -P. 1514–1537.
18. Smith R.W. *Leisure of Disabled Tourists: Barriers to Participation*. -1987.
19. UN Tourism. *Accessible Tourism for All: An Opportunity within Our Reach*. – Madrid: UN Tourism, 2024.
20. UNESCO. *Managing Cultural World Heritage*. -Paris: UNESCO World Heritage Centre, 2013.
21. United Nations General Assembly. *Resolution A/RES/78/260. International Year of Sustainable and Resilient Tourism, 2027*. -New York : United Nations, 2024.
22. World Health Organization. *Global Report on Health Equity for Persons with Disabilities*. -Geneva : WHO, 2023. - 319 p.
23. Конвенция о правах инвалидов : принята резолюцией 61/106 Генеральной Ассамблеи ООН от 13 декабря 2006 г. // Организация Объединённых Наций. -Нью-Йорк : ООН, 2006. -37 с.
24. O‘zbekiston Respublikasi qurilish meyorlari va qoidalari (SHNQ) – Aholining kamharakat guruhlari uchun binolar va inshootlardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash bo‘yicha amaldagi meyorlar.
25. O‘zbekiston Respublikasining «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi Qonuni. 15.10.2020 y., O‘RQ–641.
26. O‘zbekiston Respublikasining «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani (Nyu-York, 2006 yil 13 dekabr) ratifikatsiya qilish haqida»gi Qonuni. 2021 yil 7 iyun, O‘RQ–695 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
MANAGEMENT, MARKETING AND FINANCE
SPECIAL ISSUE: INCLUSIVE TOURISM, SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND SOCIAL RESPONSIBILITY

ТУРИЗМДА ЯНГИЛАНУВЧИ РЕСУРСЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА ИНКЛЮЗИВ ТУРИЗМ ТАМОЙИЛЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШИДАГИ ЎРНИ

Аликулов Самар Абдирашидович
Тошкент давлат иқтисодиет университети Самарканд филиали профессори
https://doi.org/10.5281/zenodo.21281441

Аннотация. *Мазкур мақола Ўзбекистонда туризмнинг янгиланувчи табиий ресурслардан фойдаланиши ва бу фаолиятнинг барқарор ривожланишга таъсирини таҳлил қилади. Тадқиқотда гидроэкотуризм, сув омбори туризми, чўл ва тоғ экотуризми, маданий-экотуризм каби туризм турлари, уларнинг ҳудудий тақсимоти ва экологик юкламаси таҳлил қилинган. Халқаро тажриба Ўзбекистон шароитига мослаштирилган ҳолда, ресурсларга бўлган босим, экологик хавфлар ва барқарорликни таъминлаш чоралари кўриб чиқилган. Мақолада туризмнинг афзалликлари ва қийинчиликлари, туризм инфратузилмасини экологик стандартларга мувофиқлаштириш, маҳаллий аҳоли иштирокини кучайтириш ҳамда ресурсларни назорат қилиш механизмлари таклиф қилинган. Тадқиқот янгиланувчи ресурслардан самарали фойдаланиш орқали Ўзбекистонда туризмнинг иқтисодий, экологик ва ижтимоий барқарорлигини таъминлаш имкониятларини кўрсатади.*

Калит сўзлар: *Янгиланувчи ресурслар, барқарор туризм, экотуризм, гидроэкотуризм, сув ресурслари, чўл ва тоғ экотизими, маданий мерос, жамоатчилик туризми, экологик юклама, Ўзбекистон.*

Кириш

Янгиланувчи табиий ресурслардан самарали фойдаланиш туризмнинг барқарор ривожланиши учун ҳал қилувчи омиллардан биридир. Жаҳон амалиётида марина туризми, паст таъсирли экотуризм, балиқ овлаш туризми, денгиз-дарё ҳудудларидаги рекреация фаолияти каби йўналишлар кенг тарғиб этилмоқда. Улар табиий ресурсларни истеъмол қилсада, тўғри бошқарув шароитида ресурс базасини тикланган ҳолда сақлаб қолиш имконини беради.

Адабиётлар шарҳи

Тадқиқот жараёнида туризмнинг барқарор ривожланиши ва янгиланувчи табиий ресурслардан фойдаланиш бўйича миллий ва халқаро адабиётлар таҳлил қилинди. Hotelling (1931) ресурслардан фойдаланиш ва уларнинг иқтисодий қийматини баҳолаш концепциясини тақдим қилса, Pearce (2001) ва Turner (2008) экотуризм ва туризмнинг экологик таъсирини баҳолаш усулларини ривожлантирган. Gilpin (2013) ва Daly (1996) барқарорлик назарияси ва экологик ресурсларнинг бошқаруви бўйича муҳим назарий асосларни ишлаб чиққан.

Адабиётлар таҳлили кўрсатдики, туризм ривожланиши фақат иқтисодий афзалликларни эмас, балки экологик ва ижтимоий барқарорликни ҳам таъминлашни талаб

қилади. Бу масалада маҳаллий аҳоли иштироки, ресурслардан оқилона фойдаланиш ва экологик назорат муҳим аҳамиятга эга.

Методология

Тадқиқотда Ўзбекистонда туризмнинг барқарор ривожланиши ва янгиланувчи ресурслардан фойдаланиш механизмларини таҳлил қилиш учун комплекс методологик ёндашув қўлланилди. Бу ёндашув қуйидагиларни ўз ичига олади:

1. **Сифатли таҳлил усули:** халқаро тажриба ва миллий шароитни муқосясий таҳлил қилиш, янгиланувчи ресурсларнинг туризмдаги потенциалини баҳолаш.
2. **Сифатли-саноат усуллари:** туристик ҳудудлар бўйича экологик юкламани аниқлаш, гидроэкотуризм, чўл ва тоғ экотуризми, маданий туризм каби турларнинг ҳудудий тақсимоти ва аҳамиятини таҳлил қилиш.
3. **Барқарорлик индикаторлари:** экологик таъсир, жамоатчилик иштирок даражаси, ресурсларнинг иқтисодий самарадорлиги ва туризм инфратузилмасининг экологик стандартларга мувофиқлиги баҳоланди.

Методологик таҳлил натижасида, Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришда янгиланувчи ресурслардан оқилона фойдаланиш, жамоатчилик иштирокини кучайтириш ва барқарорликни таъминловчи механизмлар комплексини жорий қилиш муҳим эканлиги аниқланди. Бу тадқиқот келгусида барқарор туризмни ривожлантириш ва ресурсларнинг иқтисодий, экологик ва ижтимоий самарадорлигини ошириш учун асосий илмий ва амалий йўналишларни белгилайди.

Асосий қисм

Ўзбекистон денгизга йўлга эга бўлмаган бўлса-да, мамлакатда дарёлар, сув омбори, кўллар, тоғ сув ҳавзалари, экотизимлар ва маданий ландшафтлар асосида шаклланган туризм йўналишлари янгиланувчи ресурсларга таянади. Шу боис мазкур йўналишлардаги халқаро тажрибаларни таҳлил қилиш ва уларни Ўзбекистон шароитига мослаштириш муҳим амалий аҳамият касб этади.

Ўзбекистонда классик маънодаги океан соҳилига эга «марина туризми» мавжуд бўлмаса-да, ушбу туризм турининг функцияларига мос келадиган сув-экологик фаолиятлар шаклланган. Хусусан, Сирдарё ва Амударёнинг айрим участкаларида гидроэкотуризм, Оролбўйи ва Устюрт platosida табиат кузатуви, Чимқўрғон, Тўпаланг ва Чорвоқ сув омборларида қайиқда юриш, катамаран ва байдаркада саёҳат қилиш каби фаолиятлар шу йўналишнинг миллий модификацияси ҳисобланади. Халқаро тадқиқотларда (Cater & Cater, Holland ва бошқалар) сув туризми истеъмолчи ва истеъмолсиз фаолиятларга ажратилади. Ўзбекистондаги сув фаолиятлари кўпроқ истеъмолсиз туризм турларига — кузатиш, сузиш, сайр қилиш, экотуризм элементларига мос келади. Бу эса экологик таъсирнинг паст бўлиши ва туризм маҳсулотининг юқори қийматга эга бўлишини таъминлайди.

Янги Зеландиядаги Қайкоура мисоли туризмни маҳаллий жамоалар томонидан бошқариш ижтимоий ва иқтисодий самарадорликни оширишини кўрсатган. Ўзбекистон шароитида ҳам ушбу модел юқори самара бериши мумкин бўлган ҳудудлар мавжуд: Қорақалпоғистонда Оролбўйи экотуризми, Навоий вилоятида Устюрт platosi туризми, Сурхондарё вилоятида Дарбанд ва Бойсун табиий ландшафтлари, Фарғона водийсида маданий ва экотуризм. Бундай ҳудудларда жамоатчилик иштироки даромад манбаини диверсификация қилади, миграция даражасини пасайтиради, маданий ресурсларни муҳофаза қилишга туртки

беради ва табиий муҳитни асрашга қизиқишни оширади. Бироқ айрим ҳудудларда инфратузилманинг етарли эмаслиги, ҳудудий бошқарув тизимининг заифлиги ва ташкилий тўсиқлар бу моделнинг тўлиқ амалга ошишини чекламоқда.

1-жадвал.

Ўзбекистонда янгиланувчи ресурсларга таянадиган туризм фаолиятининг асосий турлари ва ҳудудий тақсимоти

Туризм фаолияти тури	Асосий янгиланувчи ресурс	Ҳудудлар	Экологик сезгирлик даражаси	Қўшимча тавсиф
Гидроэкотуризм	Сув, биологик ресурслар	Сирдарё, Амударё, Пискент, Сурхон	Ўрта–юқори	Қайиқда сайр, байдарка, балиқ кузатуви
Сув омбори туризми	Сув ҳавзалари	Чорвоқ, Тўпаланг, Чимқўрғон	Ўрта	Актив рекреация, спорт сайёҳлиги
Чўл экотуризми	Ландшафт, ҳаво, биоэкотизим	Устюрт, Қизилқум, Оролбўйи	Юқори	Чөл сафарлари, фотосаёҳат, астротуризм
Тоғ экотуризми	Яшил зоналар, ўсимлик–ҳайвонот дунёси	Бойсун, Чимён, Зомин, Ҳисор	Жуда юқори	Хайкинг, треккинг, қушлар кузатуви
Маданий–экотуризм	Маданий мерос ва табиат	Фарғона, Самарқанд, Қашқадарё	Ўрта	Қишлоқ туризми, мерос йўллари

Юқорида келтирилган 1-жадвал Ўзбекистонда туризм фаолиятининг турлари қай даражада янгиланувчи ресурсларга таянаётганини ва уларнинг ҳудудлар бўйича тақсимотини аниқ кўрсатиб беради. Жадвалдан кўриниб турибдики, мамлакатдаги асосий экотуризм йўналишлари сув, биоэкотизим, тоғ ва чўл ландшафтлари каби қайта тикланувчи ресурслардан фойдаланади. Аммо ушбу ресурслар сезгирлиги турлича бўлиб, айрим ҳудудларда экологик мувозанатнинг бузилиши хавфи юқори.

Ана шу нуқсонлар халқаро тажрибаларда кузатилган муаммолар билан ўхшаш. Масалан, Мексиканинг Баха Калифорния ҳудудида қайд этилган (Young, 2003) **умумий ресурслардан ортиқча фойдаланиш муаммоси** Ўзбекистоннинг бир қатор ҳудудларида ҳам намоён бўлмоқда. Жадвалда кўрсатилган сув омборлари (Чорвоқ, Тўпаланг), чўл экосистемалари (Қизилқум, Устюрт), тоғ экотизимлари (Бойсун, Зомин) ва Оролбўйи ҳудудларида **ресурс босими ва ташрифчилар юкламаси** йил сайин ортмоқда.

Жумладан:

- **Оролбўйида сув ресурслари тез камайиб бормоқда**, бу эса экотуризм имкониятларини чекламоқда;
- **Чорвоқ ва Чимқўрғонда сезиларли мавсумий рекреация босими** кузатилиб, сув ифлосланиши ва пляж эрозияси юзага келмоқда;

- **Бойсун ва Зоминда экологик сезгир экотизимларнинг юкламаси артган**, бу ҳайвонот турларининг қисқаришига сабаб бўлиши мумкин;
- **Инфратузилманинг чекланганлиги**, хусусан чиқиндиларни утиллаш ва назорат тизимининг етарли эмаслиги, ресурсларга салбий таъсирни кучайтирмоқда.

Жаҳон амалиёти (Buckley, Cater, Holland, Young ва бошқалар) шуни кўрсатадики, янгиланувчи ресурсларга асосланган туризм тўғри бошқарилганда табиий ресурсларнинг тикланишини таъминлайди, маҳаллий жамоаларнинг даромадини барқарорлаштиради ва туристик маҳсулотнинг рақобатбардошлигини оширади. Шу боис, Ўзбекистонда мазкур ҳудудларнинг экологик ва иқтисодий барқарор ривожланиши учун қуйидаги чоралар зарур:

1. Ресурсларни қатъий бошқариш – сув, ландшафт ва биологик ресурслардан фойдаланиш миқдори назорат қилиниши керак.
2. Маҳаллий жамоалар иштирокини кучайтириш – туристлардан олинадиган даромаднинг бир қисми жамоаларга қайтарилиши.
3. Экологик масъулиятни ошириш – туристлар ва туроператорлар учун ахборот ва экологик саводхонлик дастурларини йўлга қўйиш.
4. Инфратузилма ва чиқинди бошқаруви – туризм объектлари учун замонавий чиқиндиларни қайта ишлаш ва экологик стандартлар талаблари жорий этилиши.

Шу тарзда, 2-жадвалдаги ҳар бир ҳудуд учун ресурс босими ва экологик хавф даражаси таҳлили Ўзбекистонда туризмни барқарор ривожлантиришда қатор устувор вазифаларни белгилайди.

2-жадвал.

Туризмнинг асосий экологик таъсирлари (халқаро ва Ўзбекистон мисоллари таққосланиши)

Тоифа	Халқаро мисол (Грин-Айленд, Малдив)	Ўзбекистон мисоли	Охирги натижа
Сув ифлосланиши	Сузиш ва кемалар фаолияти	Чорвоқ ва Чимқўрғонда мавсумий юклама	Сув сифатининг пасайиши
Ерозиция	Ороларда пляж эрозияси	Зомин, Бельдерсай пиёда йўллари	Ландшафтнинг бузилиши
Чиқиндилар	Курорт чиқиндиларининг кўпайиши	Оролбўйида чиқиндиларни йиғиш етишмаслиги	Экосистемага зарар
Био хилма–хилликка таъсир	Ҳайвонот турларининг қочиши	Бойсун ва Ҳисорда ҳайвон турлари камайиши	Турларни йўқотиш хавфи
Маданий юклама	Турист массалари маҳаллий анъаналарга босим	Фарғона водийсида маданий объектларда юклама	Анъанавий муҳитнинг бузилиши

Жадвалдан кўриниб турибдики, туризмнинг экологик таъсирлари жаҳон ва Ўзбекистон мисолларида ўхшаш тарзда намоён бўлади. Туризм соҳаси жаҳон иқтисодиётининг муҳим тармоқларидан бири бўлиб, унинг ривожланиши **қайта тикланувчи ва тикланмайдиган**

табиий ресурслардан фойдаланиш даражасига бевосита боғлиқ. Туристлар оқимининг ортиши, инфратузилманинг кенгайиши ва хизматлар турининг кўпайиши кўп ҳолларда табиий муҳитга салбий таъсирлар, хусусан, ресурсларнинг ортиқча эксплуатация қилиниши, чиқиндилар ҳажмининг кўпайиши ва экологик мувозанатнинг бузилишига олиб келади.

Туризмнинг қайта тикланувчи ресурслардан фойдаланиши Ўзбекистонда ҳам долзарб масала ҳисобланади. Халқаро тадқиқотлар кўрсатганидек, туризм табиий ресурслардан фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилишга ижобий ҳисса қўшиши мумкин, аммо номуносиб бошқарув шароитида салбий экологик оқибатлар ҳам юзага келиши эҳтимоли юқори.

Ўзбекистонда бу тенденциялар айниқса қуйидаги ҳудудларда яққол намоён:

- Чимган–Чорвоқ зонаси, Зомин, Ҳисор, Сурхондарё тоғ ҳудудлари – ташрифчилар оқими ва рекреация фаолияти сув сифати ва ландшафтга таъсир қилиши мумкин.
- Қизилқум ва Қорақалпоғистон оазислари – чиқиндиларни назоратсиз ташлаш ва инфратузилманинг етишмаслиги экологик хавфни кучайтирмоқда.

Жадвалдаги тавсиялар ва индикаторлар мазкур хатарларни қисқартириш ва барқарор туризмни ривожлантиришда амалий механизм сифатида хизмат қилади:

1. Ташрифчилар лимитини белгилаш – ҳар бир ҳудуднинг экологик сиғимини ҳисобга олган ҳолда туристлар сонини назорат қилиш (Чорвоқ, Зомин, Амирсой).
2. Экологик мониторинг – сув сифати ва ҳаво параметрларини доимий текшириш орқали ресурслар соғломлигини сақлаш (Чимён, Чорвоқ, Сурхондарё).
3. Чиқиндиларни қайта ишлаш – сарфланган ресурслар ва чиқиндиларни назорат қилиш, сарлаш пунктлари орқали экологик тозалаш тизимини йўлга қўйиш (Оролбўйи, Фарғона, Самарқанд).
4. Маҳаллий жамоага даромад улуши – даромадни жамоатчилик билан тақсимлаш орқали туризмни барқарорлаштириш ва маҳаллий аҳоли иштирокини ошириш (Бойсун, Қорақалпоғистон).
5. Экотуризм стандартлари – “Green Zone” сертификати каби стандартлар орқали туризм объектларини экологик мувофиқликка мослаш (Устюрт, Зомин, Китоб-Ҳисор).

Шу тарзда, 3-жадвал ва тавсиялар Ўзбекистонда туризмни барқарор ривожлантириш, ресурсларнинг тикланиш қобилиятини сақлаш ва экологик хавфларни минималлаштириш учун аниқ амалий йўналишларни белгилайди.

Шу жиҳатлардан келиб чиқиб айтганда, туризмнинг қайта тикланувчи ресурслардан фойдаланишини Ўзбекистонда барқарор ривожлантириш учун халқаро тажрибани миллий шароитга мослаштирган ҳолда қўллаш талаб этилади. Маҳаллий жамоалар, давлат органлари ва хусусий сектор ўртасидаги мувозанатли ҳамкорлик табиий ресурсларни муҳофаза қилиш, ҳудудларнинг экологик мустаҳкамлигини таъминлаш ва мамлакатнинг узоқ муддатли туристик салоҳиятини ривожлантиришга хизмат қилади. Бу нафақат туризм соҳасининг ўсиши, балки мамлакатнинг табиий ва маданий меросини сақлаб қолишга ҳам хизмат қилади.

Хулоса

Тадқиқотда қўлланилган комплекс методологик ёндашув туризмни ривожлантиришда қуйидаги асосий йўналишларни белгилайди:

1. Янгиланувчи ресурслардан барқарор ва самарали фойдаланиш.
2. Жамоатчилик ва маҳаллий аҳоли иштирокини фаоллаштириш орқали туристик лойиҳаларнинг ижтимоий самарадорлигини ошириш.

3. Экологик ва маданий меросни сақлашни туризм ривожланиши билан уйғунлаштириш.

4. Миллий туризм стратегияси ва халқаро стандартлар асосида туризм инфратузилмасини ривожлантириш.

Шу орқали Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш нафақат иқтисодий ривожланишга ҳисса қўшади, балки экологик барқарорлик ва ижтимоий фаровонликни ҳам таъминлайди. Тадқиқот натижалари туризм соҳасини ривожлантириш бўйича илмий асосланган тавсиялар ва миллий сиёсатни такомиллаштириш йўналишлари учун муҳим фундамент бўлиб хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Cater, C. and Cater, E. Marine Ecotourism: Between the Devil and the Deep Blue Sea, Wallingford: CABI.
2. Daly, H. Steady State Economics, San Francisco: Freeman.
3. Fennell, D.A. Ecotourism, 3rd edin, London: Routledge.
4. Gilpin, A. Environmental Economics: A Critical Overview, Chichester: Wiley.
5. Hotelling, H.(1931) 'The economics of exhaustible resources', Journal of Political Economy,39:137-75.
6. Pearce, D.W. and Turner, R.K. (1990) Economics of Natural Resources and the Environment, London: Harvester Wheatsheaf.
7. Taniyev A.B. Milliy turizm xizmatlari bozorida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent. Innovatsiya ziyo 2025 yil 192 b.
8. Taniyev A.B. Turizmga soliqlarning ta’siri. Monografiya. Toshkent "NIF MSh" Mas'uliyati cheklangan jamiyat 2024-yil 189 b.
9. Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма: Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЕУ им. Г.В. Плеханова» в г. Тасҳкенте, 2013. -248 с.
10. Тухлиев И. Туризм асослари. Самарқанд: СамИСИ. 2015. – 271 б

UDC 338.48

MODERNIZATION MECHANISMS OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN DEVELOPING SUSTAINABLE AND INCLUSIVE TOURISM (ON THE EXAMPLE OF CHINESE EXPERIENCE)

[1]Akmal Amirov, [2]Yuming Zhu
[1]Associate Professor, Samarkand State University named after Sharof Rashidov
ORCID: 0000-0001-6168-8791, [2]"Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage, Samarkand City, Republic of Uzbekistan, ORCID: 0009-0008-3747-6009
https://doi.org/10.5281/zenodo.21281472

Abstract. *Tourism infrastructure has become a critical factor in destination competitiveness, sustainability and social inclusion. In this article, we will analyze the institutional and investment mechanisms that enabled China to modernise its tourism infrastructure between 1978 and 2025 and what can be learnt from Uzbekistan. The study will be based on systems analysis, comparative case analysis, institutional analysis, qualitative content analysis and SWOT and PESTEL assessment as well as inclusive infrastructure comparison against ISO 21902:2021. Ultimately, China's success is more about the integrated strategy of central planning, multi-actor coordination, blended financing, public-private partnerships and standardisation. This has led to the development of high-speed rail, digital tourism services and protected natural areas, but inclusive infrastructure is still not a worldwide best practice. The paper offers three conceptual models and proposes a phased modernisation strategy for Uzbekistan. Practical recommendations focus on institutional reform, transport connectivity, heritage and rural tourism, public-private partnerships, and the development of inclusive and environmentally sustainable tourism infrastructure for long-term destination competitiveness.*

Keywords: *tourism infrastructure; sustainable tourism; inclusive tourism; accessible tourism; smart tourism; public-private partnership; infrastructure modernisation; China; Uzbekistan; ISO 21902:2021.*

1. Introduction

Tourism is once again one of the world's most dynamic sectors of the economy. In 2025, international arrivals reached an estimated 1.52 billion and tourism exports reached USD 2.2 trillion [1] as a result of the unprecedented pandemic downturn in the world in 2025. The focus on tourism development has shifted from restoring visitor numbers to sustainable development, resilience and social inclusion. Tourism infrastructure is now at the center of everything we do to improve accessibility, the geographical distribution of tourism, environmental performance and the diversity of destinations. International discussions are built on two complementary perspectives. Sustainable tourism aims to balance economic development with environmental protection and community well-being under the Sustainable Development Goals [2].

Inclusive and accessible tourism (ISO 21902:2021) [3] provides everyone with equal access to tourism in a way that is inclusive and accessible through universal design and barrier-free

infrastructure. Digital transformation has also made data, connectivity and smart technologies a key part of modern tourism infrastructure [4]. China is a great example of modernisation in the tourism infrastructure. Over the past 40 years China has grown the largest domestic tourism market in the world with a huge high-speed rail network of more than 50,000 km [5], a national park system [6] and an extensive digital tourism service.

But more important than the scale of investment is the institutional mechanism by which coordinated policies, funding and implementation transformed infrastructure into a driver of sustainable and more inclusive tourism. These experiences are particularly relevant for Uzbekistan. Since 2016 the number of international visitors has increased strongly, supported by the Uzbekistan-2030 strategy [7], but regional connectivity, inclusive facilities, green infrastructure and institutional coordination remain major impediments to sustainable tourism development.

While a number of studies have already described China's tourism growth, there are few that are able to provide detailed insights into the institutional mechanisms in which policy, financing and infrastructure are connected from the perspective of sustainability and inclusion. A few studies have already taken into account institutional analysis, ISO 21902:2021 benchmarking and a context-specific adaptation model for emerging Silk Road destinations. In this work, we will reconstruct China's tourism infrastructure modernisation mechanism, evaluate its sustainability and inclusiveness, develop conceptual models of institutional processes and propose an evidence-based roadmap for Uzbekistan.

2. Literature Review

There are few existing studies that explain China's tourism growth but lack a clear understanding of institutional mechanisms of policy, financing and infrastructure delivery from a sustainability and inclusion point of view, especially from the perspectives of sustainability. Most of them also consider institutional analysis, ISO 21902:2021 benchmarking and a context-specific adaptation model for emerging Silk Road destinations. This study reconstructs China's tourism infrastructure development process and its sustainability and inclusiveness, conceptualising the institutional processes of modernisation, and develops a realistic and evidence-based perspective for Uzbekistan.

The accessible-tourism literature, led by Darcy and colleagues, reframed disability through a social-and-rights model and demonstrated that travel barriers are largely produced by unprepared destinations rather than by impairment as such [8]. Key contributions established the heterogeneity of access needs, linked accessibility to sustainability and competitiveness and traced the field's maturation from a niche concern into a strategic market [9], [10]. Universal design - creating environments usable by all without adaptation - supplies the design philosophy, and ISO 21902:2021 now codifies requirements across policy, the built environment, transport, information and training [3], [11].

A persistent critique is that practice lags principle: certification, reliable information and staff training remain weak even where physical access exists. A parallel stream conceptualises smart tourism as the convergence of information and communication technologies with the tourism experience, enabled by interconnected stakeholders, big data and a public-private digital ecosystem [4]. Scholars stress that smartness is as much an institutional and data-governance achievement as a technological one propose models for sustainable smart destinations, and examine the smart tourist's co-creative role; the pandemic intensified calls for transformative, technology-enabled research [12].

Critically, digital systems can either widen or narrow inclusion, depending on whether accessibility is designed in.

Indeed, studies of China also concern cultural-policy foundations, demand dynamics, and the tourism effects of transport infrastructure. An extensive body of quasi-experimental data shows that high-speed rail increases tourist arrivals and revenue, alters the spatial structure of urban tourism, and benefits inland and less-developed regions with high levels of tourism to these regions, but also concentrates these flows in hubs [13], [14].

Rural revival studies connect infrastructure to village tourism and income diversification [15]. However, these studies are sectoral and econometric in nature: they only measure the effects of the particular asset but do not describe the institutional mechanism that drives the asset base. In this field, these literatures are complementary, but are disconnected.

Competitiveness models call infrastructure but not its production [16]; sustainability and inclusion scholarship sets normative benchmarks but rarely looks at delivery mechanisms in fast-modernising states; smart-tourism research focuses on technology and not institutions, and China-specific studies take into account the impact of single assets. What is missing is an integrated, mechanism-level view on how a developing state coordinates strategy, financing, delivery and feedback to modernise infrastructure at the same time for competitiveness, sustainability and inclusion and how this can be translated into a well-structured and standards-compliant adaptation strategy for another developing destination. This is our contribution to fill that gap.

3. Research Methodology

The study is based on four complementary approaches. Institutional analysis examines the governance structure of tourism infrastructure including central authorities, local governments, state-owned enterprises and private partners. Qualitative content analysis of policy documents, statistical reports and national strategies identifies the major policy instruments and development priorities. SWOT analysis assesses the strengths, weaknesses, opportunities and threats of China's tourism infrastructure mechanism from sustainability and inclusion perspectives and PESTEL analysis analyzes political, economic, social, technological, environmental and legal conditions that are driving its development and transferability. Findings are distilled into three conceptual models. The analysis is conducted in two ways: a vertical analysis of the evolution of China's modernization process, followed by a horizontal comparison benchmarking inclusive infrastructure against ISO 21902:2021 and assessing its applicability to Uzbekistan. The study draws on UN Tourism [1], the World Economic Forum [17], the OECD [18], the World Bank [19], ISO standards [3], Chinese and Uzbek government publications and peer-reviewed literature to ensure triangulation and to avoid single-source bias.

4. Analysis and results

This mechanism is a four-stage cycle (Figure 1). National development plans define strategic targets and are executed together by tourism, transport and environmental authorities. Financing combines fiscal investment, local-government special-purpose bonds, public–private partnerships and state-owned enterprises. Infrastructure delivery is done on an ongoing basis; monitoring systems, destination ratings and digital data are used to keep pace.

Thus the mechanism itself, instead of individual projects, is the reason why China's modernisation has been successful. The most visible of its effects is transport connectivity. By 2025 China's high-speed rail network surpassed 50,000 km connecting most of its major cities and driving

tourism to the mainland, reducing travel time and encouraging people to go inland [5]. The airport expansion was also on the way of regional accessibility, and overcrowded cities were less stressed.

Digital infrastructure is a second big success. The mass adoption of 5G in the country, online booking and smart ticketing and real-time visitor information have all made digital infrastructure available to tourists. A harmonized public–private digital ecosystem that integrates government standards and data management with private sector service delivery greatly enhances the efficiency and sustainability of smart tourism development [4].

